

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12. I.08.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDA BIR MARTALIK ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

NAVRUZ-ZODA LAYLI BAXTIYOROVNA

KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI
OSHIRISHDA SUN'IY INTELLEKTDAN FOYDALANISH
METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH

08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)
ilmiy darjasini olish uchun yozilgan dissertatsiya
A V T O R E F E R A T I

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора (DSc) по экономическим наукам

Contents of dissertation abstract of the Doctor of (DSc) in economics sciences

Navruz-zoda Layli Baxtiyorovna

Kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligini oshirishda sun'iy intellektdan foydalanish metodologiyasini takomillashtirish3

Навруз-зода Лайли Бахтиёровна

Совершенствование методологии использования искусственного интеллекта в повышении конкурентоспособности субъектов малого бизнеса.....35

Navruz-zoda Layli Baxtiyorovna

Improving the methodology for using artificial intelligence to enhance the competitiveness of small business entities.....71

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works75

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12. I.08.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDA BIR MARTALIK ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

NAVRUZ-ZODA LAYLI BAXTIYOROVNA

KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI
OSHIRISHDA SUN'IY INTELLEKTDAN FOYDALANISH
METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH

08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)
ilmiy darjasini olish uchun yozilgan dissertatsiya
A V T O R E F E R A T I

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.4. DSc/Iqt1075 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.urdu.uz) va “Ziyonet” Axborot ta‘lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi: **Murodova Nodira Qulliyevna**
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponenlar: **Salayev San‘atbek Komilovich**
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Muxitdinov Xudoyar Suyunovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Askarov Nazimjon Niyozovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot: **Qarshi davlat texnika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini beruvchi DSc.03/2025.27.12. I.08.03 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil “10” iyun soat 16:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. Manzil: 200117, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi 11-uy. Tel.: (+99865) 221-26-46; faks: (+99865) 224-57-00;

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (912 - raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 200117, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi 11-uy. Tel.: (+99865) 224-57-00; e-mail: buxdu_arm@umail.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “26” 05 kuni tarqatildi.

(2026-yil “26” 05 dagi 5/26 raqamli reyestr bayonnomasi).



O.X. Xamidov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosida bir martalik ilmiy kengash raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

D.Sh. Yavmutov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosida bir martalik ilmiy kengash kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

A.O. Ochilov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosida bir martalik ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda 2015–2025-yillar davomida dunyo miqyosida kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligini oshirishda sun'iy intellekt (SI)dan foydalanish sezilarli darajada kengaydi. Agar 2015-yilda kichik biznes subyektlarning atigi 5–10 foizi SI vositalaridan foydalangan bo'lsa, 2025-yilga kelib, bu ko'rsatkich o'rtacha 70–80 foizga yetdi, AQSh kabi rivojlangan bozorlarda esa 95 foizdan oshdi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, SI asosidagi chatbotlar, marketing avtomatlashtirish va prognozlash tizimlari kichik biznes subyektlarda mehnat unumdorligini o'rtacha 20–30 foizga oshirgan. Operatsion xarajatlarni esa 15–25 foizga kamaytirgan. Generativ SIDan foydalanuvchi tadbirkorlik korxonalarida esa haftasiga o'rtacha 13–14 soat vaqt tejaliishiga erishilgan. Moliyaviy sohada SI asosidagi kredit skoring va risk-baholash modellari kuniga 10 milliondan ortiq kichik biznes arizalarini tahlil qilib, kredit defolti xavfi qariyb 40 foizga kamaygan¹. Ilmiy jihatdan esa so'nggi o'n yilda "SI + kichik biznes + raqobatbardoshlik" yo'nalishida minglab empirik tadqiqotlar chop etilib, faqat 2020–2025-yillarning o'zida 5 mingdan ortiq ilmiy maqola va bibliometrik ishlar e'lon qilindi². Bu esa sun'iy intellektning kichik biznes uchun oddiy texnologiyadan strategik raqobat ustunligiga aylanganini yaqqol tasdiqlaydi.

Jahon iqtisodiyotida kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligini oshirishda sun'iy intellektdan foydalanish metodologiyasi jadal rivojlanish bosqichida bo'lib, u asosan ma'lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish, biznes jarayonlarini avtomatlashtirish, prediktiv tahlil va mijozlarga yo'naltirilgan raqamli xizmatlar tizimini shakllantirishga qaratilgan. So'nggi yillarda ishlab chiqilgan metodologiyalar kichik biznesning cheklangan resurslarini hisobga olgan holda "past xarajat – yuqori samaradorlik" tamoyiliga tayangan holda SI asosidagi marketing analitikasi, moliyaviy risklarni baholash, talabni prognozlash va operatsion boshqaruv modellarini integratsiyalash orqali mehnat unumdorligini oshirish, xarajatlarni qisqartirish va bozorga moslashuvchanlikni kuchaytirishga xizmat qilmoqda. Natijada sun'iy intellekt kichik biznes uchun alohida texnologik vositadan ko'ra, global raqobat sharoitida barqaror va uzoq muddatli ustunlikni ta'minlovchi strategik metodologik platformaga aylanmoqda.

Yangi O'zbekiston sharoitida kichik biznes subyektlarini rivojlanish jarayonlari tarkibiy islohotlar, raqamli transformatsiya va innovatsion texnologiyalarni joriy etish bilan uzviy bog'liq bo'lib, sanoat, qishloq xo'jaligi, xizmatlar sohasi, transport-logistika hamda energetika tarmoqlarida tadbirkorlikni rivojlantirish va samaradorlikni oshirish hamda raqobatbardoshlikni kuchaytirishga qaratilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida ta'kidlaganidek, "Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirishda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, sanoatni modernizatsiya qilish,

¹Organisation for Economic Co-operation and Development. (2023). *Artificial intelligence in small and medium-sized enterprises: Adoption, impacts and policy implications*. OECD Publishing. <https://doi.org/10.1787/7a5c1b5e-en>.

² Elsevier B.V. (2025). *Scopus database: Artificial intelligence, small business and competitiveness research output (2020–2025) bibliometric analytics report*. Scopus Content Analytics.

raqamli texnologiyalarni keng joriy etish hamda xizmatlar sohasini rivojlantirish ustuvor vazifa etib belgilanadi”³. Ushbu ustuvor vazifani amalga oshirishda sanoatda texnologik modernizatsiya va raqamli ishlab chiqarish tizimlari, qishloq xo‘jaligida agrotexnologiyalar va resurs tejamkor yondashuvlari, xizmatlar sohasida raqamli platformalar va sun‘iy intellektga asoslangan boshqaruv mexanizmlari joriy etilishi iqtisodiy o‘sishning yangi manbalarini shakllantirmoqda. Natijada tarmoqlararo integratsiya kuchayib, milliy iqtisodiyotning barqarorligi va kichik biznes subyektlari raqobatbardoshligi izchil ravishda ortib bormoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079-son “Raqamli O‘zbekiston — 2030” Strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston — 2030” Strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning 2024-yil 14-oktabrdagi PP-358-sonli “Sun‘iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish strategiyasini 2030-yilgacha tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2021-yil 26-avgustdagi PQ-5234-son “Sun‘iy intellekt texnologiyalarini qo‘llash bo‘yicha maxsus rejimni joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 7-iyuldagi VMQ-402-son “Axborot texnologiyalari parkini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2021-yil 20-iyuldagi VMQ-373-son “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatning rivojlanish holatini reyting baholash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari startap loyihalar va innovatsion tadbirkorlikni moliyaviy va tashkiliy qo‘llab-quvvatlashni nazarda tutib, kichik biznesda sun‘iy intellekt asosidagi marketing, moliyaviy tahlil, risklarni baholash va prognozlash metodologiyalarini amaliyotga tatbiq etish uchun huquqiy va iqtisodiy shart-sharoitlarni mustahkamlash yo‘lida belgilangan qarorlar ustuvor vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi⁴. Jahon xo‘jaligi tizimida kichik biznes subyektlari raqobatbardoshligini oshirishda raqamli

³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti (2022). “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” PF-60-son Farmoni.

⁴ Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi quyidagi xorijiy ilmiy tadqiqotlar va olimlarning ilmiy izlanishlaridan foydalanilgan: World Bank. (2022). *Digital opportunities for small businesses: Leveraging AI and data analytics for productivity growth*. World Bank Publications. <https://documents1.worldbank.org/curated/en/099112525160536089>; OECD. (2023). *Artificial intelligence in small and medium-sized enterprises: Adoption, impacts and policy implications*. OECD Publishing. <https://doi.org/10.1787/7a5c1b5e-en>; McKinsey Global Institute. (2023). *The economic potential of generative AI: The next productivity frontier*. McKinsey & Company. <https://www.mckinsey.com/capabilities/tech-and-ai/our-insights/the-economic-potential-of-generative-ai-the-next-productivity-frontier>; Goldfarb (Eds.), *The economics of artificial intelligence: An agenda* (pp. 23–57). University of Chicago Press. <https://press.uchicago.edu/ucp/books/book/chicago/E/bo35780726.html>; Atif Hussain, Rana Rizwan. Strategic AI adoption in SMEs: A Prescriptive Framework. <https://arxiv.org/pdf/2408.11825>;

iqtisodiyot konsepsiyasining chuqurlashuvi bilan bevosita bog‘liq holda yangi ilmiy yo‘nalish sifatida shakllanmoqda. Xususan, katta ma’lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish, biznes jarayonlarini avtomatlashtirish, prediktiv tahlil va mijozlarga yo‘naltirilgan raqamli strategiyalarni shakllantirish, kichik tadbirkorlik subyektlarining innovatsion faolligini oshirish, venchur investitsiyalash samaradorligini ta’minlashning ilmiy-uslubiy asoslarini tadqiq etish bo‘yicha ilmiy izlanishlar turli xalqaro tashkilotlar, yetakchi xorijiy ilmiy-tadqiqot institutlari va oliy o‘quv yurtlari, jumladan, Jahon banki, OECD, Buffalo universiteti SI biznes innovatsiyalari markazi (CAIBI, AQSh), Massachusetts texnologiya instituti (MIT), Amerika universiteti huzuridagi Amaliy sun‘iy intellekt instituti (IAAI), Germaniyaning Sun‘iy intellekt tadqiqot markazi (DFKI) va Sun‘iy intellekt Innovatsion Parki (IPAI), Buyuk Britaniya Aston universitetidagi Aston SI tadqiqot qilish va qo‘llash markazi (ACAIRA), Avstraliya Mashina o‘rganish instituti (AIML), Hindiston texnika instituti (IIT Madras), Pekin sun‘iy intellekt akademiyasi Singapur milliy universiteti, Rossiya Federatsiyasining Innopolis universiteti, Ozorbayjon Sun‘iy intellektni qo‘llash tadqiqot markazi (UNEC, Baku), Nazarboyev universiteti huzuridagi SMART tizimi va Sun‘iy intellekt instituti, Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti tomonidan amalga oshirilmoqda.

Dunyo mamlakatlarida kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligini oshirishda sun‘iy intellektdan foydalanish jarayonlari tobora tizimli va strategik tus olib bormoqda. Masalan, AQSh va Xitoyda SI asosidagi ma’lumotlar tahlili, talabni prognozlash, dinamik narxlash hamda mijozlar xatti-harakatini bashoratlash vositalari kichik biznesning bozorga moslashuvchanligini kuchaytirsa, Germaniya va Yaponiyada ishlab chiqarish va xizmatlar sohasida aqlli avtomatlashtirish, prediktiv texnik xizmat, ta’minot zanjiri optimallashtirish orqali hududiy samaradorlik oshirilmoqda. Shuningdek, Janubiy Koreya va Singapur tajribasida davlat tomonidan yaratilgan SI-platformalar, raqamli inkubatorlar va sandbox rejimlari kichik biznesga marketing, moliyalashtirish va eksport faoliyatida tezkor qarorlar qabul qilish imkonini berib, hududlar kesimida raqobat ustunligini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Hozirgi vaqtda nufuzli xalqaro tashkilotlar tomonidan kichik biznes subyektlari raqobatbardoshligini oshirish sohasida quydagi ustuvor yo‘nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: ilm-fan, biznes va davlat sektori vakillarini SI ilovalarini, jumladan, kichik biznes uchun potentsial foydali bo‘lgan sohaga oid yechimlar va loyihalarni birgalikda ishlab chiqish; SI vositalarini boshqarish, tahlil qilish, jarayonlarni avtomatlashtirish va korxonalarining (shu jumladan kichik biznes) amaliy muammolarini hal qilishga qaratilgan loyihalar ustida izlanishlar olib borish; SI-biznes ilovalari va qarorlarni qo‘llab-quvvatlash tizimlarini o‘rganish, kichik va o‘rta biznes kontekstida sun‘iy intellektning hayotiy davrini o‘rganish va boshqalar.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Iqtisodiy adabiyotlarda kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligini oshirishda sun‘iy intellektdan foydalanish

masalalari uncha uzoq bo‘lmagan davrdan boshlab tadqiq qilib kelinmoqda. Kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligini oshirishda sun’iy intellektdan foydalanish muammolariga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlar olib borgan xorijiy olimlardan M. Porter, E. Jay, B. Barney, David J., Teece, Gary Pisano, Amy Shuen, Henry Chesbrough, A. Joseph, Schumpeter, C. Markides, R. Daniel, Whiteson, T. Clawson, Ankur Patel, Michael, C. Darden, H. Thomas, N. Davenport, D. Lewis, Anirudh Koul, Siddha Ganju, Meher Kasam, F. Chollet kabi tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida atroflicha o‘rganilgan⁵.

O‘zbekistonda kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligini oshirishda sun’iy intellektdan foydalanish, innovatsion klasterlarni tashkil qilish, hududlarning investitsion jozibadorligini oshirish, innovatsion salohiyatidan samarali foydalanish bo‘yicha nazariy-uslubiy jihatlar va tashkiliy masalalar M.R. Boltabayev, M.S. Qosimova, B.K. G‘oyibnazarov, Sh.J. Ergashxodjayeva, A.N. Samadov, Sh.I. Otajonov, A.Sh. Toshpo‘latov, I.I. Umaraliyev, Q.X. Abdurakhmanov, J. Razzokov, T.R. Solijonovich, S. Makhmudov, M.B. Raximova, Sh.Z. Xolmurodov, J.S. Qosimov, I.A. Nazarov⁶ kabi mahalliy olimlarning ilmiy tadqiqotlarida keng qamrovli o‘rganilgan. Biroq mavjud tadqiqotlarda kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligini oshirishda sun’iy intellektdan foydalanishning hududiy xususiyatlardan kelib chiqqan holda konseptual asoslarini yaratish, hududlarning innovatsion rivojlanish darajasini baholashning ilmiy-uslubiy vositalarini shakllantirish, kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligini oshirish va istiqbolli yo‘nalishlarini belgilash bo‘yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish dolzarb va ustuvor yo‘nalish bo‘lib qolmoqda.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Buxoro davlat universitetining “Kichik biznes subyektlarining

⁵ Porter M. E. *Competitive Strategy: Techniques for Analyzing Industries and Competitors*. New York: The Free Press.1980. ISBN: 978-0684841489. – B. 35–40. Jay B. Barney. Firm Resources and Sustained Competitive Advantage. *Journal of Management*, Vol. 17, № 1.1991.P.99-120. David J. Teece Gary Pisano & Amy Shuen. Dynamic Capabilities and Strategic Management. *Strategic Management Journal*, Vol. 18, № 7. 1997. – P. 509–533. Henry Chesbrough. Open Innovation: The New Imperative for Creating and Profiting from Technology. Harvard Business School Press. 2003. – P.1–28. Joseph A. Schumpeter. The Theory of Economic Development. Harvard University Press.1934. – P. 66–94. Markides, C. Strategic Innovation. *Sloan Management Review*, Vol. 38, No. 3.1997. – P. 9–23 Daniel R. Whiteson. Machine Learning for Small Business: Practical AI Applications. Routledge 2021. – P. 268. T. Clawson. Artificial Intelligence for Small Business: Harness the Power of Machine Learning and Data. Kogan Page. 2020.P224. Ankur Patel. Hands-On Machine Learning for Small Business Owners. O’Reilly Media2022. – P. 310. Michael C. Darden. AI-Powered Commerce: How Machine Learning Reshapes Small Retail. Springer 2023. – P. 289. Thomas H. Davenport. The AI Advantage: Machine Learning Applications for Entrepreneurs. MIT Press. 2019. – P. 256. N. D. Lewis. Deep Learning for Business with Python. CreateSpace Independent Publishing 2017. – P. 366. Anirudh Koul, Siddha Ganju, Meher Kasam. Practical Deep Learning for Cloud, Mobile, and Edge. O’Reilly Media 2020. – P. 400. Chollet F. (2021). *Deep Learning with Python* (2-nashr). Manning Publications. – 504 b.

⁶Boltabayev M.R., Qosimova M.S., G‘oyibnazarov B.K., Ergashxodjayeva SH.J., Samadov A.N., Otajonov Sh.I⁶. *Kichik biznes va tadbirkorlik: o‘quv qo‘llanma*. – Toshkent: “NOSHIR” nashriyoti, 2011. Toshpo‘latov A.Sh., Umaraliyev I.I. Kichik biznes korxonalarining raqobatbardoshligini tadqiq etishga konseptual yondashuvlar. “Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” 1-son. 2024. Abdurakhmanov Q.X. Raqamli iqtisodiyotning nazariy va amaliy masalalari. – Toshkent: “Fan va texnologiyalar” NMU, 2021. – 172 b. Razzokov J. (2025). *Axborot tizimlarini integratsiyalashning zamonaviy yechimlari*. InLibrary. T.R. Solijonovich (2024). The share of information services in the small business sector. *Regional Business*, (Kokand University). S. Makhmudov (2024). The impact of digitalization on small enterprises in Uzbekistan. *ACM Digital Library*.

raqobatbardoshligini oshirishning ustuvor yo‘nalishlari” mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligini oshirishda sun’iy intellektdan foydalanish metodologiyasini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-uslubiy hamda amaliy yo‘nalishdagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshlik konsepsiyasining nazariy asoslarini tizimli tahlil qilish va zamonaviy ilmiy yondashuvlarni umumlashtirish;

kichik biznes raqobatbardoshligini belgilovchi asosiy omillar va ko‘rsatkichlar tizimini aniqlash hamda ularni hududiy xususiyatlar bilan bog‘lash;

sun’iy intellekt texnologiyalarining turlari, funksional yo‘nalishlari va iqtisodiy mohiyatini kichik biznes kontekstida tasniflash;

kichik biznes faoliyatida SI texnologiyalaridan foydalanishning imkoniyatlari va cheklovlarini aniqlash;

kichik biznes raqobatbardoshligini oshirishda SI texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha xorijiy mamlakatlar tajribasini o‘rganish va taqqoslash;

xorijiy tajribalarni O‘zbekiston, xususan, Buxoro viloyati sharoitida qo‘llash imkoniyatlarini baholash;

SI vositalari orqali kichik biznesning raqobatbardoshligini oshirish mexanizmlarini ishlab chiqish;

SI texnologiyalarini joriy etishda davlat-xususiy sheriklik (DXSh) va kichik biznes klasterlari asosidagi hamkorlik mexanizmlarini asoslash;

kichik biznesda xususiy va umumiy axborot tizimlari o‘rtasidagi integratsiyalash mexanizmini ishlab chiqish;

Buxoro viloyatida kichik biznes uchun malakali kadrlar va bilim-infratuzilma talabini empirik tahlil qilish;

Buxoro viloyatida kichik sanoat va xizmat klasterlarining statistik holatini tahlil qilish va rivojlanish tendensiyalarini aniqlash;

kichik biznes subyektlarida innovatsion faollikni oshirishda SI texnologiyalarining transformatsion ta‘sirini baholash;

kichik biznes raqobatbardoshligini oshirishda SI joriy etishning iqtisodiy samaradorligini baholash uchun metrikalar tizimini ishlab chiqish;

Buxoro viloyatida kichik biznes subyektlarining iqtisodiy samaradorligini SI texnologiyalarini joriy etish nuqtayi nazaridan tahlil qilish.

ARIMA asosida kichik biznesni rivojlantirishning prognoz variantlarini ishlab chiqish va amaliy tavsiyalar berish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Buxoro viloyati kichik biznes subyektlari olingan.

Tadqiqotning predmetini Buxoro viloyatida kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligini oshirishda sun’iy intellektdan foydalanish metodologiyasini takomillashtirish bilan bog‘liq ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar majmui tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda tizimli yondashuv, induksiya va deduksiya, analiz va sintez, qiyosiy tahlil, mantiqiy tahlil, tanlama kuzatish, statistik hamda ko‘p omilli ekonometrik tahlil usullari, modellashtirish jarayonlarda iqtisodiy-matematik, noaniq to‘plam nazariyasi, neyron to‘r usullarida taqsimlash, prognozlash va boshqa usullar qo‘llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

kichik biznes subyektlari raqobat ustunligini baholashda Sun‘iy intellekt raqobatbardoshlik kompozit indeksi – CAIC (Composite Index of AI Competitiveness) ning hisob mexanizmi strategik bosqichlari (DI–IN–IT–IR–MT) hamda resurs taqsimoti – shartnomaviy vositalari bilan integrallashgan yagona tizim bo‘lishini ta‘minlash asosida takomillashtirilgan;

kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligini sun‘iy intellekt vositalarida oshirish maqsadida qiymat yaratishning “resurslar integratsiyasi – hamkorlik – foyda – raqobatbardoshlik” zanjirini tizimli tahlil asosida dinamik qobiliyatlar yondashuvining sezish, egallash va qayta konfiguratsiyalash bosqichlarini uyg‘unlashtirgan mualliflik “Sensing–Seizing–Reconfiguring” (2SR) konseptual modeli ilmiy asoslangan;

kichik biznes subyektlari va davlat tizimlari o‘rtasidagi axborot integratsiyasini takomillashtirish uchun API (Application Programming Interface) asosida axborot almashinuvi tezligi va sifatini oshirishga yo‘naltirilgan, ko‘p yo‘nalishli va o‘lchov ko‘rsatkichlariga tayanuvchi “sabab–oqibat–takomillashtirish” (SOK) zanjiri asosidagi tizimli yondashuv ilmiy asoslangan;

Buxoro viloyati misolida kichik sanoat va xizmat klasterlarini rivojlantirish orqali YHM tarkibida sanoat tarmog‘i ulushini 42–43% gacha hamda xizmatlar sohasi ulushini 45% dan ortiq darajaga yetkazish asosida kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligini hududlar miqyosida oshirishga xizmat qiluvchi “Hududiy raqobatbardoshlik indeksi” (HRI) empirik modeli ishlab chiqilgan;

tadbirkorlik subyektlari raqobatbardoshligini oshirishda sun‘iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish ustuvorligida Buxoro viloyatida kichik biznes iqtisodiy rivojlanish asosiy ko‘rsatkichlarining 2026–2030-yillarga prognoz parametrlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

kichik biznes va davlat tizimlari o‘rtasidagi axborot almashinuvi samaradorligini oshirish maqsadida fragmentlashtirilgan ma‘lumotlar bazalaridan yagona davlat raqamli platformasiga o‘tishning konseptual modeli amaliy jihatdan asoslab berilgan;

Buxoro viloyati misolida ishlab chiqilgan empirik klaster modeli asosida kichik sanoat va xizmatlar sohasining hududiy yalpi mahsulot tarkibidagi ulushini oshirish orqali raqobatbardoshlikni kuchaytirish imkoniyati yaratilgan;

kichik biznes subyektlarining iqtisodiy samaradorligini oshirish uchun ERP–CRM–AI–IoT texnologiyalarini integratsiyalash, inson kapitalini rivojlantirish va

klasterlararo sinerjiyani yagona tizimda bog'lovchi kompleks empirik yondashuv ishlab chiqilgan;

kichik biznes subyektlarining iqtisodiy, ijtimoiy, moliyaviy va innovatsion ko'rsatkichlari asosida qurilgan chiziqli trend modellari yordamida ularning 2030-yilgacha bo'lgan rivojlanish prognozi ishlab chiqilgan;

tadqiqot natijalari asosida kichik biznesni sun'iy intellekt asosida rivojlantirish, davlat–biznes axborot integratsiyasini chuqurlashtirish va klasterlash mexanizmlarini kengaytirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar paketi ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotda qo'llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, ekonometrik va matematik usullarning asoslanganligi, statistik ma'lumotlarning O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining ma'lumotlariga hamda boshqa rasman e'lon qilingan amaliy ma'lumotlar tahliliga asoslanganligi va tegishli xulosa, takliflarning mutassadi tashkilotlar tomonidan amaliyotga joriy qilinganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, kichik biznesni sun'iy intellekt asosida rivojlanishini ta'minlash metodologiyasini takomillashtirish bo'yicha qarorlar qabul qilishda zamonaviy uslubiy yondashuvni qo'llashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi. Kichik biznesni sun'iy intellekt asosida rivojlanishi o'ziga xos jihatlari, jahon iqtisodiyotiga integrallashuvi va unda o'z mavqeiga ega bo'lish strategik maqsadlarini aniqlash va ular asosida istiqbolli dasturlarini shakllantirishda, shuningdek, nazariy va statistik materiallardan oliy ta'lim muassasalarida "Iqtisodiyot nazariyasi", "Mintaqaviy iqtisodiyot", "Milliy iqtisodiyot", "Amaliy ekonometrika" va "Mintaqaviy va mahalliy rivojlanish iqtisodiyoti" kabi fanlarni o'qitishda keng foydalanilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligini oshirishda sun'iy intellektdan foydalanish metodologiyasini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

kichik biznes subyektlari raqobat ustunligini baholashda Sun'iy intellekt raqobatbardoshlik kompozit indeksi – CAIC (Composite Index of AI Competitiveness)ning hisob mexanizmi strategik bosqichlari (DI–IN–IT–IR–MT) hamda resurs taqsimoti – shartnomaviy vositalari bilan integrallashgan yagona tizim bo'lishini ta'minlash asosida takomillashtirish bo'yicha taklifi Buxoro viloyati kichik biznes subyektlari amaliyotiga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2026-yil 18-martdagi 07\10-10-5-6348-sonli ma'lumotnomasi). Tadqiqot natijalariga ko'ra, kompozit indeksi (CAIC) ning integral qiymati 0,758 (75,8%) ni tashkil etib, SI texnologiyalarini ishlab chiqarish va marketing yo'nalishlarida strategik joriy etish umumiy raqobatbardoshlikni sezilarli oshirishini empirik jihatdan isbotladi.

kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligini sun'iy intellekt vositalarida oshirish maqsadida qiymat yaratishning "resurslar integratsiyasi – hamkorlik – foyda – raqobatbardoshlik" zanjirini tizimli tahlil asosida dinamik qobiliyatlar yondashuvining sezish, egallash va qayta konfiguratsiyalash bosqichlarini

uyg'unlashtirgan "Sensing–Seizing–Reconfiguring" (2SR) mualliflik konseptual modeli Buxoro viloyati kichik biznes subyektlari amaliyotiga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2026-yil 18-martdagi 07\10-10-5-6348-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu modelni joriy etilishi natijasida kichik biznes subyektlarida sun'iy intellekt asosida resurslardan foydalanish samaradorligini 2 martaga oshirish, hamkorlik mexanizmlarini faollashtirish va barqaror raqobat ustunligini shakllantirish imkonini berdi;

kichik biznes subyektlari va davlat tizimlari o'rtasidagi axborot integratsiyasini takomillashtirish uchun API asosida axborot almashinuvi tezligi va sifatini oshirishga yo'naltirilgan, ko'p yo'nalishli va o'lchov ko'rsatkichlariga tayanuvchi "sabab–oqibat–takomillashtirish" (SOK) zanjiri asosidagi tizimli yondashuv bo'yicha taklifi Buxoro viloyati kichik biznes subyektlari amaliyotiga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2026-yil 18-martdagi 07\10-10-5-6348-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu taklifni joriy etilishi natijasida kichik biznes subyektlari va davlat tizimlari o'rtasida axborot almashinuvi tezligi va sifatini oshirish, ma'lumotlar integratsiyasini markazlashtirish hamda boshqaruv qarorlarining samaradorligini kuchaytirish imkonini berdi;

Buxoro viloyati misolida kichik sanoat va xizmat klasterlarini rivojlantirish orqali YHM tarkibida sanoat tarmog'i ulushini 42–43% gacha hamda xizmatlar sohasi ulushini 45% dan ortiq darajaga yetkazish asosida ishlab chiqilgan kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligini hududlar miqyosida oshirishga xizmat qiluvchi "Hududiy raqobatbardoshlik indeksi" (HRI) empirik modeli Buxoro viloyati kichik biznes subyektlari amaliyotiga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2026-yil 18-martdagi 07\10-10-5-6348-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu taklifni joriy etilishi natijasida Buxoro viloyatida HRI indeksi 0,58 dan 0,71 gacha oshdi va kichik biznesda 5,8 mingdan ortiq yangi ish o'rinlari yaratildi;

tadbirkorlik subyektlari raqobatbardoshligini oshirishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish ustuvorligida Buxoro viloyatida kichik biznes iqtisodiy rivojlanish asosiy ko'rastkichlarining 2026–2030-yillarga ishlab chiqilgan prognoz parametrlari Buxoro viloyati kichik biznes subyektlari amaliyotiga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2026-yil 18-martdagi 07\10-10-5-6348-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur prognoz natijalari Buxoro viloyatida kichik biznes sektorining izchil va ko'tarilib boruvchi rivojlanish trayektoriyasini ko'rsatib, mahsulot ishlab chiqarish hajmi 2025-yildagi 11250 mlrd. so'mdan 2030-yilga kelib 13041,9 mlrd. so'mgacha o'sish istiqbolini belgilash imkonini berdi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 25 ta ilmiy ish, shu jumladan, 1 ta yakka mualliflikda monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 10 ta maqola, jumladan, 9 ta respublika va 1 ta xorijiy ilmiy jurnallarda nashr etilgan.

Tadqiqot ishining tuzilishi: Tadqiqot ishi kirish, beshta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan va ilovalardan iborat bo'lib, umumiy hajmi 229 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va asosiy vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tarkibiy tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Kichik biznes raqobatbardoshligi va sun'iy intellekt texnologiyalarining nazariy asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida kichik biznesning raqobatbardoshlik konsepsiyasining nazariy asoslari va sun'iy intellekt texnologiyalarining turlari va kichik biznesda foydalanish imkoniyatlari hamda SI texnologiyalaridan kichik biznesda foydalanishning xorijiy tajribalari va O'zbekistonda qo'llash imkoniyatlari to'g'risida bayon etilgan.

Kichik biznes bozor iqtisodiyotining ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, ish o'rinlarini yaratish, innovatsiyalarni joriy etish va ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Ular raqobat muhiti shakllanishi uchun tabiiy omil hisoblanadi. Kichik biznesda raqobatbardoshlik bu nafaqat mahsulot yoki xizmat sifati, balki ishlab chiqarish tannarxi, texnologik innovatsiyalar, mijozlarga xizmat ko'rsatish darajasi, brend imiji kabi ko'plab omillarning uyg'unlashuviga asoslanadi. Kichik biznesning raqobatbardoshlik konsepsiyasining asosiy jihatlarini bozor muhitining globallasuvi, texnologik rivojlanish, iqtisodiy barqarorlik zarurati, davlat siyosatining yo'naltirilganligi va iste'molchilarning talabi o'zgarishi tashkil etadi.

Kichik biznes subyektlari uchun sun'iy intellekt texnologiyalarining joriy etilishi – raqobatbardoshlikni oshirish, xarajatlarni kamaytirish va mijozga yo'naltirilgan xizmatlarni takomillashtirish yo'lida muhim qadamdir. Bu yerda, sun'iy intellekt – bu kompyuter tizimlari va dasturlarining inson tafakkuriga o'xshash tarzda fikrlash, o'rganish, tahlil qilish va qaror qabul qilish qobiliyatiga ega bo'lishini ta'minlaydigan texnologiyalar majmuasidir. Sun'iy intellekt ma'lumotlarni avtomatik qayta ishlash, andazalarni (patterns) aniqlash, prognoz qilish, jarayonlarni optimallashtirish va inson ishtirokisiz mustaqil yechim topish imkonini beradi.

Kichik biznes subyektlarida qo'llaniladigan sun'iy intellekt o'z ichiga Machine Learning (ML) – ma'lumotlardan o'rganish orqali avtomatik qarorlar chiqarish; Deep Learning (DL) – neyron tarmoqlar asosida murakkab tahlillarni amalga oshirish; Natural Language Processing (NLP) – inson tili bilan muloqot qilish (chatbotlar, tarjimonlar); Computer Vision – tasvir va video orqali obyektlarni aniqlash va tahlil qilish; Predictive Analytics – kelajakdagi tendensiyalarni oldindan bashorat qilish kabi texnologiyalarini o'z ichiga oladi.

Kichik biznesda SI texnologiyalaridan foydalanishning asosiy yo‘nalishlari va ularning amaliy foydalanish shakllari quyidagilarda namoyon bo‘ladi: *marketing va savdo* (mijozlar xatti-harakatlarini tahlil qilish, shaxsiylashtirilgan reklamalar, SI chatbotlar); *mijozlarga xizmat ko‘rsatish* (24/7 avtomatik yordam (chatbot), mijoz so‘rovlariga tez javob); *moliyaviy boshqaruv* (xarajatlar prognozi, firibgarlikni aniqlash, pul oqimlarini optimallashtirish); *logistika va ta‘minot* (yetkazib berishni optimallashtirish, ombor zaxiralarini avtomatlashtirish); *ishlab chiqarish* (sifat nazorati (kompyuter ko‘rish orqali), robotlar yordamida yig‘ish jarayonlari); *kadrlar boshqaruvi* (rezyumelarni avtomatik tahlil qilish, ishga mos nomzodlarni tanlash). Sun‘iy intellekt texnologiyalari kichik biznes subyektlarining ushbu faoliyat yo‘nalishlarida keng joriy etilishi natijasida ularning har birida samaradorlik, tejamkorlik va raqobatbardoshlikni oshirishini ta‘minlaydi.

Kichik biznes subyektlari uchun SI – bu faqat texnologiya emas, balki o‘shirish yo‘li, samaradorlik vositasi, bozordagi yangi imkoniyatlar kaliti va xavflarni boshqarish mexanizmi ham hisoblanadi. Sun‘iy intellektning bunday “biznes samarasi”ni real ishbilarmonlik hayotidan quyidagi zanjirsimon misol bilan ko‘rsatish mumkin:

Onlayn do‘kon SI yordamida mijozga mos mahsulotlar taklif qiladi → savdo hajmi oshadi, xizmat ko‘rsatish firmasi SI chatbot yordamida 24/7 mijozlarga javob beradi → ish samaradorligi va mijoz mamnunligi ortadi → mahalliy ishlab chiqaruvchi SI yordamida yetkazib berish zanjirini optimallashtiradi → xarajatlar kamayadi → samaradorlik va raqobatbardoshlik oshadi.

Sun‘iy intellekt kichik biznes uchun – bu raqamli transformatsiyaning yuragidir. U nafaqat iqtisodiy foyda keltiradi, balki kichik korxonalarni tezroq o‘shirishga, moslashishga va innovatsion ekotizimga kirishga yordam beradi.

Dissertatsiyada ilg‘or xorijiy mamlakatlarda kichik biznesda qo‘llanilayotgan sun‘iy intellekt (SI) texnologiyalarining tizimli tahlili o‘tkazilgan. Bu jarayonda AQSh, Germaniya, Yaponiya kabi davlatlardagi SI asosidagi amaliyotlar, xizmatlar, moliyaviy mexanizmlar va infratuzilmalar o‘rganilgan. Soha va texnologiya kesimida (masalan, mashinali o‘rganish, NLP, kompyuter ko‘rish) ilg‘or yondashuvlar aniqlanib, O‘zbekiston sharoitiga mos tushadigan yechimlar bilan taqqoslangan. O‘zbekiston uchun SI texnologiyalarining eng samarali xorij tajribalaridan, quyidagilar hisoblanadi: Singapurning institutsional modeli; Kanadaning grantlar va davlat siyosati; Germaniyaning sanoat integratsiyasi; Isroilning startap ekotizimi; Hindistonning arzon texnologiyalari.

O‘zbekistonda sun‘iy intellekt (SI) texnologiyalarini kichik biznes subyektlarida joriy etish jarayonida dissertatsiyada ko‘rib chiqqan xorijiy mamlakatlar tajribasidan foydalanish ahamiyatli bo‘lishi bilan birga, ularni mamlakatimiz sharoitida to‘liq qo‘llashda muayyan muammolar va cheklovlar yuzaga kelishi mumkin. Ularni bartaraf etish yo‘llari quyidagilardan iborat bo‘lishi mumkin (1-jadvalga qarang).

O‘zbekistonda sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarini kichik biznes subyektida joriy etish muammolarini yechish yo‘llari⁷

Muammo turi	Tavsiya etiladigan yechim yo‘llari
Texnik infratuzilma cheklovi	SI xizmatlari uchun bulutli platformalar va 5G tarmoqlarini rivojlantirish
Kadrlar yetishmasligi	Mahalliy SI o‘quv kurslari, IT akademiyalar ochish
Moliyaviy cheklovlar	Raqamli transformatsiya grantlari va kreditlar yo‘lga qo‘yish
Mahalliy ehtiyojga moslik	SI xorijiy tajribalarini O‘zbekistonda “ <i>adaptatsiya + lokalizatsiya</i> ” tamoyili bo‘yicha moslashtirish

Ilg‘or xorijiy tajribalarni iqtisodiyotning turli sektorlari bo‘yicha moslashtirib qo‘llash orqali O‘zbekistonda kichik biznesning raqobatbardoshligi, raqamli savodxonligi va innovatsion salohiyatini oshirish uchun keng imkoniyat vujudga keladi, degan xulosaga kelindi.

Dissertatsiyaning “**Kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligini oshirishda sun’iy intellektni joriy etish mexanizmlari**” nomli ikkinchi bobida SI vositalari orqali kichik biznesning raqobatbardoshlikni oshirish mexanizmlari va SI jalb etishning strategik bosqichlari va shartnomaviy mexanizmi (DXSh, kichik biznes klasterlari) hamda kichik biznesda xususiy va umumiy axborot tizimlari o‘rtasidagi integratsiyalash mexanizmi bayon etilgan.

Kichik biznes faoliyatida SI vositalaridan foydalanish ichki va tashqi raqobat ustunliklarini shakllantirish, innovatsion biznes modellarini joriy etish, ma’lumotlarni intellektual tahlil qilish, korporativ raqobat tahlilini chuqurlashtirish va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlarini yaratish orqali ta’sir ko‘rsatadi. Natijada, SI texnologiyalari kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligini mustahkamlab, ularning innovatsion rivojlanish bosqichini tezlashtiradi (2-jadval).

Sun’iy intellekt vositalarini biznes jarayonlariga integratsiya qilish raqobatbardoshlikni oshirishning asosiy mexanizmlaridan biri hisoblanadi. Ilmiy jihatdan, kichik biznes subyektlari raqobatbardoshligiga SI vositalarining ta’sirini baholash uchun integral indekslar, panel regressiya modellarini ishlab chiqish zarur.

Amaliy jihatdan esa SI vositalari yordamida resurslardan foydalanishni optimallashtirish, mijozlar xatti-harakatlarini prognozlash, xarajatlarni kamaytirish va bozor ulushini kengaytirish imkoniyatlari yuzaga keladi.

Raqamli transformatsiya sharoitida kichik biznes subyektlari raqobatbardoshligini raqamli tahlil qilish va boshqarishda indikativ yondashuvi muhim ahamiyat kasb etadi. Raqamlashtirishning indikativ indeksining turli hisob-kitob usullari mavjud. Muallif yondashuviga ko‘ra kichik biznesning raqamli transformatsiyasi va innovatsion o‘shishini bosqichma-bosqich ifodalash taqozo

⁷ Muallif ishlanmasi.

etadi. Bu bosqichlar “Diagnostika (DI) → Integratsiya (IN) → Intellektual tahlil (IT) → Innovatsion rivojlanish (IR) → Monitoring va takomillashtirish (MT)” zanjiri asosida kichik biznesning raqobat ustunligini shakllantiradi (3-jadvalga qarang).

2-jadval

Sun’iy intellekt vositalarining kichik biznes subyektlari raqobatbardoshligiga ta’sirini ko’rsatuvchi indikatorlar⁸

Yo’nalish	SI vositalari	Natijaviy ta’sir	O’lchov ko’rsatkichi (Indicator)
Marketing va savdo	CRM tizimlari, Chatbotlar	Mijozlar bilan tezkor aloqa, sotuv hajmi oshishi	Sotuv hajmi o’sishi (%)
Moliyaviy boshqaruv	SI-analitika, Big Data	Xarajatlarni kamaytirish, moliyaviy oqimni barqarorlashtirish	Rentabellik koeffitsiyenti (%)
Ishlab chiqarish	IoT, RPA, Machine Learning	Resurslardan samarali foydalanish, ishlab chiqarish tannarxini kamaytirish	Tannarx pasayishi (%)
Innovatsiya	SI dizayn, Blockchain	Yangi mahsulot va xizmatlar yaratish	Innovatsion mahsulot ulushi (%)
Xavflarni boshqarish	Predictive Analytics	Bozor va valyuta risklarini oldindan aniqlash	Risk darajasining kamayishi (%)

SI vositalari orqali kichik biznes raqobatbardoshligini oshirish mexanizmini umumiy kompozit indeks (Composite Index of AI Competitiveness – CAIC) modelda har bir bosqich kichik biznesning raqobatbardoshlik kompozit indeksi (CAIC)ni shakllantiruvchi subindeks sifatida qaraladi. Bunda SI texnologiyalarining ta’siri diagnostik, integratsion, intellektual, innovatsion va monitoring komponentlar orqali umumiy integrallashgan qiymati quyidagi formula asosida hosil qiladi:

$$CAIC = w_1DI + w_2IN + w_3IT + w_4IR + w_5MT \quad (1)$$

Bu yerda DI – Diagnostika subindeksi; IN – Integratsiya subindeksi; IT – Intellektual tahlil subindeksi; IR – Innovatsion rivojlanish subindeksi; MT – Monitoring va takomillashtirish subindeksi; $w_1...w_5$ – har bir komponentning og’irlik koeffitsiyentlari ($\sum w = 1$).

Kichik biznes raqobatbardoshligi kompozit indeksi (CAIC) – bu kichik korxonaning bozorda raqobat qilish qobiliyatini bir nechta muhim ko’rsatkichlar asosida yagona sonli bahoga aylantiruvchi umumiy indeksdir. Ya’ni bu indeks korxonaning ishlab chiqarish samaradorligi, marketing faoliyati, moliyaviy boshqaruvi, innovatsion salohiyati va xavflarni boshqarish darajasi kabi omillarni birlashtirib, ularning umumiy ta’sirini ko’rsatadi. Natijada, indeks qanchalik yuqori bo’lsa, korxonaga shunchalik raqobatbardosh, innovatsion va barqaror rivojlanayotgan hisoblanadi (4-jadval).

⁸ Muallif ishlanmasi.

**Sun'iy intellekt vositalari orqali kichik biznes subyektlari
raqobatbardoshligini oshirish mexanizmining strategik bosqichlari⁹**

T\r	Strategik bosqich nomi	Strategik bosqich roli	Maqsad va asosiy faoliyat yo'nalishlari	Kutilayotgan natijalar
1	Diagnostika (DI) bosqichi	Diagnostika bosqichi – raqamli tayyorgarlikni baholash	Korxonaning texnik, axborot va kadrlar salohiyatini tahlil qilish; SWOT/GAP usullarida diagnostika o'tkazish.	Raqamli tayyorgarlik indeksi (DRI) aniqlanadi, SI joriy etish uchun resurslar rejalashtiriladi.
2	Integratsiya (IN) bosqichi	Integratsiya bosqichi – SI texnologiyalarini biznes jarayonlariga tatbiq etish	Marketing, ishlab chiqarish, moliya va xizmat ko'rsatish yo'nalishlariga mos SI modullarini tanlash va integratsiya qilish.	Biznes jarayonlar avtomatlashtiriladi, qaror qabul qilish tezligi ortadi.
3	Intellektual tahlil (IT) bosqichi	Intellektual tahlil bosqichi – ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv	AI-analitika, mashinaviy o'rganish va prediktiv tahlil usullaridan foydalanish.	Ma'lumotlarga asoslangan strategik qarorlar, prognozlash aniqligi oshadi.
4	Innovatsion rivojlanish (IR) bosqichi	Innovatsion rivojlanish bosqichi – yangi biznes modellarini shakllantirish	“Smart service”, “digital twin”, “AI-driven marketing”, “intelligent supply chain” kabi modellarni joriy etish.	Innovatsion salohiyat oshadi, yangi mahsulot va xizmat turlari paydo bo'ladi.
5	Monitoring va takomillashtirish (MT) bosqichi	Monitoring va takomillashtirish bosqichi – barqarorlikni ta'minlash	SI tizimlarining samaradorligini KPI, ROI, DEI, CEI orqali baholash; tizimni yangilab borish.	Barqaror raqamli raqobatbardoshlik shakllanadi, doimiy o'sish ta'minlanadi.

4-jadvaldagi beshta yo'nalish – ishlab chiqarish, marketing va savdo, moliyaviy boshqaruv, innovatsiya va xavflarni boshqarish – CAIC modelining amaliy komponentlari sifatida qaraladi. Ularning har biri sun'iy intellektning biznesdagi qo'llanilish yo'nalishiga mos keladi va normallashtirilgan ko'rsatkich (0–1) hamda og'irlik koeffitsiyenti (w_i) asosida umumiy indeksga ta'sir ko'rsatadi.

CAIC modeli bo'yicha vaznlangan hissalar yig'indisi kichik biznesning raqobatbardoshlik darajasini integrallashtirilgan tarzda ifodalaydi. Jadval tahliliga ko'ra, kichik biznes raqobatbardoshligining kompozit indeksi eng yuqori darajada ishlab chiqarish (0.85) va marketing-savdo (0.80) yo'nalishlarida namoyon bo'lgan bo'lib, bu sohalarda sun'iy intellekt texnologiyalarining samarali qo'llanilayotganini bildiradi. Moliyaviy boshqaruv (0.75) o'rtacha natija ko'rsatib, resurslardan foydalanish va xarajatlarni optimallashtirishda ijobiy tendensiyani ko'rsatmoqda. Innovatsiya (0.70) hamda xavflarni boshqarish (0.65) yo'nalishlari esa hali rivojlanish imkoniyatiga ega bo'lgan segmentlar sifatida e'tiborni talab etadi.

⁹ Muallif ishlanmasi.

Kichik biznes raqobatbardoshligi kompozit indeksi (CAIC)ni hisoblash uslubi¹⁰

T\r	Yo‘nalishlar	Ball (0–100)	Normallashtirilgan, Ni, (0–1)	Og‘irlik (w_i)	Vaznlashgan hissa	Ustuvorlik
1	Ishlab chiqarish	85	0.85	0.227	0.193	1
2	Marketing va savdo	80	0.80	0.213	0.171	2
3	Moliyaviy boshqaruv	75	0.75	0.200	0.150	3
4	Innovatsiya	70	0.70	0.187	0.131	4
5	Xavflarni boshqarish	65	0.65	0.173	0.113	5

Umuman olganda, vaznlashgan hissa hisob-kitobiga ko‘ra, kichik biznesning umumiy raqobatbardoshlik darajasi yuqori bo‘lib, u taxminan 75–76 foiz samaradorlik ko‘rsatkichiga ega. Ya‘ni kichik biznesning umumiy raqamli raqobatbardoshlik darajasi 75,8% ($CAIC = \sum(w_i \times N_i) = 0.758$) ni tashkil etadi.

Kichik biznes raqobatbardoshligi kompozit indeksi (CAIC), resurs taqsimoti tavsiyasi hamda sun‘iy intellekt (SI) jalb etishning strategik bosqichlari va shartnomaviy mexanizmi o‘zaro bog‘langan holda ko‘rsatilgan. Bu yondashuv kichik biznesning raqamli transformatsiyasi va raqobat ustunligini ta‘minlashda SI texnologiyalarini samarali jalb etish bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiya sifatida ishlab chiqilgan (5-jadval).

Resurs taqsimoti bo‘yicha eng katta ulush (22.7%) ishlab chiqarish yo‘nalishiga to‘g‘ri keladi. Bu CAIC modelida ishlab chiqarish samaradorligi SI integratsiyasining markaziy komponenti ekanligini ko‘rsatadi. Marketing va savdo (21.3%) SI yordamida intellektual tahlil va raqamli mijoz tarmog‘i orqali innovatsion biznes modellarni kuchaytiradi. Moliyaviy boshqaruv (20%) esa CAICning barqarorlik komponentini ifodalaydi, bu SI asosida real vaqtli moliyaviy monitoring tizimlarini rivojlantirishni talab qiladi. Innovatsiya (18.7%) va xavflarni boshqarish (17.3%) esa korxonada ichki muvozanatini ta‘minlab, kelajakdagi barqaror o‘shish uchun texnologik xavfsizlik va kreativlikni kuchaytiradi.

Kichik biznes subyektlarini raqamli transformatsiyasi va sun‘iy intellekt asosida raqobatbardoshlikni oshirish jarayonida Christoph Zott va Amit Raphaelning “Value Creation in E-Business” modeli¹¹ bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, u elektron biznes muhitida qiymat yaratish mexanizmini tushuntiruvchi konseptual yondashuv hisoblanadi. Mazkur konsepsiyaning asosiy maqsadi – raqamli biznes muhitida yangi iqtisodiy qiymat yaratish mexanizmini aniqlash va uni tashkiliy, texnologik hamda innovatsion boshqaruv tizimlari bilan uyg‘unlashtirishdan iborat. U kichik biznes subyektlarga raqamli transformatsiya jarayonida quyidagi strategik savollarga javob beradi:

¹⁰ Muallif ishlanmasi.

¹¹ Zott C., & Amit R. (2010). *Business model design: An activity system perspective*. *Long Range Planning*, 43(2–3), 216–226.

Yo‘nalishlar bo‘yicha resurs taqsimoti va ularning CAIC bilan bog‘liqligi¹²

Yo‘nalish	Resurs ulushi (%)	SI strategik bosqichi bilan bog‘lanish	Shartnomaviy mexanizmda aks etuvchi element	Umumiy izoh
Ishlab chiqarish	22.7	<i>Integratsiya bosqichi</i> – SI texnologiyalarini ishlab chiqarish jarayonlariga kiritish (AI-driven production, IoT monitoring)	Texnik hamkorlik va litsenziya shartnomalari	Eng katta resurs ulushi ajratiladi, chunki avtomatlashtirish va raqamli nazorat CAICda eng yuqori hissa beradi.
Marketing va savdo	21.3	<i>Intellektual tahlil bosqichi</i> – mijoz xatti-harakatini bashorat qilish, raqamli reklama va bozor tahlili	Ma’lumot almashish, CRM tizimlari va kontent-hamkorlik shartnomalari	Raqobatbardoshlikning 2-ustuvor omili; SI asosida raqamli marketing strategiyalari shakllanadi.
Moliyaviy boshqaruv	20.0	<i>Monitoring va takomillashtirish bosqichi</i> – AI asosida moliyaviy risklar va rentabellikni tahlil qilish	Audit, moliyaviy nazorat va xizmat ko‘rsatish shartnomalari	SI orqali budjet nazorati, xarajat optimallashtirish va real vaqti tahlil amalga oshiriladi.
Innovatsiya	18.7	<i>Innovatsion rivojlanish bosqichi</i> – yangi biznes modellarini shakllantirish (AI-based services, digital twin)	Patent, startup va texnologik hamkorlik shartnomalari	Yangi raqamli xizmatlar yaratiladi, lekin resurslar nisbatan kamroq talab qiladi.
Xavflarni boshqarish	17.3	<i>Diagnostika bosqichi</i> – xavflarni aniqlash, prognozlash va SI asosida profilaktik chora ko‘rish	Axborot xavfsizligi va riskni taqsimlash bo‘yicha shartnomalar	Raqamli xavfsizlik va tahliliy tizimlar orqali biznes barqarorligi mustahkamlanadi.


- qanday qilib raqamli texnologiyalar yordamida qiymat yaratiladi?
- qaysi resurslar va hamkorlik turlari eng samarali natija beradi?
- qanday qilib sun‘iy intellekt orqali mijozlar va bozor bilan yangi o‘zaro aloqa mexanizmlari yaratiladi?

Ushbu savollarga javob berish uchun qiymat yaratish siklidan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi (1-rasm).

1-rasmda “SI asosida qiymat yaratish sikli” konsepsiyasi tasvirlangan bo‘lib, u sun‘iy intellekt texnologiyalarini kichik biznes faoliyatiga joriy etish orqali raqobatbardoshlikni oshirish jarayonini to‘rtta muhim komponent asosida izchil ifodalaydi. Qiymat yaratish jarayoni resurslar integratsiyasi bosqichidan boshlanib, undan texnologik, moliyaviy va intellektual imkoniyatlar yagona tizimga birlashtiriladi. Hamkorlik bosqichi – SI va raqamli platformalar yordamida hamkorlar, mijozlar va tarmoqlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqani kuchaytiradi. Natijada, innovatsion mahsulot va xizmatlar iqtisodiy samaradorlikni kuchaytiriladi. Siklning yakunida sun‘iy intellekt asosida ishlab chiqilgan qiymat modeli korxonaga tezkor


¹² Muallif ishlanmasi.

qaror qabul qilish, moslashuvchanlik va barqaror o‘shish asosida kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligini oshirish imkonini yaratadi.



1-rasm. Sun’iy intellekt asosida qiymat yaratish sikli¹³

Qiymat yaratishning “resurslar integratsiyasi – hamkorlik – foyda – raqobatbardoshlik” zanjirini tizimli tahlili asosida dinamik qobiliyatlar yondashuvining sezish, egallash va qayta konfiguratsiyalash bosqichlarini uyg‘unlashtirgan “Sensing–Seizing–Reconfiguring” (2SR) modeli bo‘yicha kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligini sun’iy intellekt asosida oshiradi (2-rasm).



2-rasm. Sun’iy intellekt asosida qiymat yaratishning “Sensing–Seizing–Reconfiguring” (2SR) modeli¹⁴

“Sensing–Seizing–Reconfiguring” (2SR) modeli – bu kichik biznes subyektlarning bozor o‘zgarishlariga moslashuvi, imkoniyatlarni aniqlashi va ichki jarayonlarini qayta tuzish orqali raqobat ustunligini saqlab qolish jarayonini ifodalaydi. Model tarkibidagi 2 ta “S” harflari va “R” harfi quyidagilarni bildiradi:

1-“S” – *Sensing (sezish)* – bozorni sezish strategik bosqichda korxonada tashqi muhitdagi o‘zgarishlarni, iste’molchi ehtiyojlarini va yangi texnologik tendensiyalarni sezish, tahlil qilish va baholash orqali yangi imkoniyatlarni aniqlaydi. Uning asosiy maqsadi – bozorda yuzaga kelayotgan imkoniyatlarni erta


¹³ Muallif ishlanmasi.

¹⁴ Muallif ishlanmasi.

payqash, raqobatchilar faoliyatini kuzatish va innovatsion g‘oyalarni ilgari surishdan iborat. Sensing – sun’iy intellekt yordamida ma’lumotlarni to‘plash, monitoring qilish va strategik qarorlar uchun intellektual asos yaratish jarayonidir.

2-“S” – *Seizing* (egallash) – imkoniyatni egallash bosqichda aniqlangan imkoniyatlardan foydalanish, ya’ni ularga mos resurslarni safarbar etish, investitsiya yo‘naltirish va strategiyalarni amalga oshirish jarayoni kechadi. Kichik biznes subyektlari uchun bu bosqich – bozor imkoniyatlarini real innovatsion mahsulotlar, xizmatlar yoki raqamli yechimlarga aylantirish davridir. Shartnomaviy mexanizmlar aynan shu bosqichda iqtisodiy xavfsizlikni, moliyaviy shaffoflikni va hamkorlikdagi ishonchni ta’minlaydi.

“R” – *Reconfiguring* – qayta konfiguratsiya qilish yakuniy bosqichda korxonaning o‘zining ichki tuzilmasi, jarayonlari va imkoniyatlarini qayta moslashtiradi, ya’ni yangi texnologiyalar va bozor talablari asosida qayta quradi. Bu bosqich innovatsion barqarorlikni ta’minlash, raqamli infratuzilmani mustahkamlash va korxonaning uzoq muddatli raqobatbardoshligini saqlab qolish uchun zarur. Sun’iy intellekt yordamida diagnostika tizimlari joriy qilinadi va qarorlar ma’lumotga asoslangan tarzda qabul qilinadi. Umuman olganda, 2SR modeli kichik biznes uchun strategik moslashuvchanlik, resurslardan samarali foydalanish va innovatsion barqarorlikni ta’minlovchi poydevor bo‘lib, SI texnologiyalari va shartnomaviy boshqaruv tizimlari bilan uyg‘unlashgan holda raqamli raqobatbardoshlikni sezilarli darajada oshiradi (3-rasm).



3-rasm. SI vositalari orqali kichik biznes subyektlari raqobatbardoshligini oshirish mexanizmi¹⁵

3-rasmda kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligini oshirishda sun’iy intellekt (SI) vositalarini joriy etishning strategik bosqichlari izchil ifodalangan. Jarayonning dastlabki bosqichida resurslar integratsiyasi va intellektual tahlil orqali biznesning ichki va tashqi imkoniyatlari aniqlanadi. Keyingi bosqichda monitoring va innovatsion yechimlar yordamida marketing, moliyaviy boshqaruv, ishlab chiqarish hamda xavflarni boshqarish tizimlari raqamlashtiriladi. Yakuniy bosqichda esa diagnostika va rekonfiguratsiya mexanizmlari asosida SI texnologiyalari (IoT, Big Data, ML, Blockchain, CRM va Chatbotlar) bir butun

¹⁵ Muallif ishlanmasi.

raqamli ekotizimga birlashtirilib, kichik biznes subyektlarga barqaror innovatsion rivojlanish va yuqori raqobatbardoshlik darajasiga erishish imkon yaratadi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida kichik biznes subyektlari raqobatbardoshligini oshirish uchun ichki (xususiy) va tashqi (umumiy) axborot tizimlari o'rtasidagi integratsiya dolzarb masalaga aylandi. Bugungi kunda kichik biznes subyektlar nafaqat ichki jarayonlarni avtomatlashtirish, balki mijozlar, hamkorlar va davlat xizmatlari bilan raqamli ekotizimda uzviy axborot almashinuvini yo'lga qo'yishi zarur. Bu integratsiya biznes jarayonlarining tezkorligini, shaffofligini va boshqaruvning aniqligini oshiradi.

Kichik biznes subyektlarida xususiy va umumiy axborot tizimlarini SI asosida integratsiyalash – bu nafaqat texnologik yangilanish, balki raqobat ustunligi, iqtisodiy samaradorlik va innovatsion barqarorlikning asosiy strategik yo'nalishidir. Ushbu mexanizm orqali ma'lumotlar oqimi tezkor, qarorlar aniq, hamkorlik tizimi esa raqamli ekotizim asosida shakllanadi. Natijada kichik biznes subyektlari global raqamli iqtisodiyotning faol ishtirokchisiga aylanadi va ularning raqobatbardoshlik indeksi, innovatsion faollik hamda iqtisodiy mustahkamligi sezilarli darajada oshib boradi.



4-rasm. Kichik biznes subyektlarida axborot tizimi integratsiyalash mexanizmi¹⁶

4-rasmda kichik biznesda axborot tizimlarini integratsiyalash mexanizmi sun'iy intellekt (SI) asosida ifodalangan bo'lib, u ichki va tashqi axborot resurslari o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ko'rsatadi. Chap tomonda joylashgan xususiy tizim korxonaning ichki boshqaruv, moliyaviy, ishlab chiqarish va tahliliy ma'lumotlar bazasini anglatadi, o'ng tomondagi umumiy tizim esa tashqi hamkorlik, marketing, mijozlar bilan aloqa va davlat raqamli xizmatlari bilan integratsiyani ifodalaydi. Ularning markazida joylashgan "SI Integratsiya platformasi" esa ushbu tizimlarni yagona ma'lumotlar maydonida birlashtiruvchi, tahlil qiluvchi va avtomatik boshqaruvni ta'minlovchi asosiy raqamli mexanizmdir. Natijada, ma'lumotlar almashinuvi tezlashadi, qarorlar aniqligi ortadi, resurslardan samarali foydalanish ta'minlanadi hamda kichik biznes subyektlarining innovatsion raqobatbardoshligi sezilarli darajada oshadi.

Kichik biznes subyektlari va davlat tizimlari o'rtasidagi axborot integratsiyasini takomillashtirish uchun API asosida axborot almashinuvi tezligi va sifatini oshirishga yo'naltirilgan, ko'p yo'nalishli va o'lchov ko'rsatkichlariga tayanuvchi "sabab–oqibat–takomillashtirish" (SOT) zanjiri asosidagi tizimli yondashuv ilmiy asoslangan. Kichik biznes subyektlarida xususiy va umumiy axborot tizimlari integratsiyasining takomillashtirish yo'llari 6-jadvalga ko'rsatilgan.


¹⁶ Muallif ishlanmasi.

Kichik biznes subyektlarida “Sabab – Oqibat – Takomillashtirish” yo‘llari¹⁷

Sabablar	Oqibatlar	Takomillashtirish yo‘llari
Me‘yoriy-huquqiy bazaning yetarlicha mukammal emasligi	Kichik biznes va davlat tizimlari o‘rtasida uzilishlar, byurokratik to‘siqlar	Integratsiya jarayonini tartibga soluvchi maxsus qonun va normativ hujjatlarni ishlab chiqish
Texnik standartlar va API interfeyslarning yo‘qligi	Xususiy tizimlar (ERP, CRM) va davlat tizimlari o‘rtasida moslik muammolari	Yagona texnik standartlar, API platformalari va ma‘lumot almashuv protokollarini joriy etish
Moliyaviy cheklovlar	Kichik biznes uchun qo‘shimcha xarajatlar, integratsiya jarayonini orqaga surish	Davlat grantlari, subsidiyalar, imtiyozli kreditlar orqali integratsiya xarajatlarini qoplash
Ilmiy tadqiqotlarning yetarli emasligi	Amaliyotda tizimlarning sust integratsiyasi, nazariy asoslarning yo‘qligi	Ilmiy-tadqiqot institutlarida maxsus ilmiy loyihalar va doktorlik tadqiqotlarini rag‘batlantirish
IT mutaxassislar salohiyatining pastligi	Kichik biznesda axborot tizimlarini samarali boshqarish imkoniyati cheklangan	Mutaxassislar tayyorlash va malaka oshirish dasturlarini kengaytirish

6-jadval kichik biznes subyektlari va davlat tizimlari o‘rtasida integratsiyaning eng muhim to‘siqlaridan biri – me‘yoriy-huquqiy bazaning yetarli darajada mukammal emasligidadir. Natijada korxonalar davlat organlari bilan ma‘lumot almashishda ko‘p hollarda qo‘lda hujjat topshirish yoki qo‘shimcha byurokratik jarayonlarga duch keladi. Bu esa vaqt va resurs yo‘qotilishiga olib kelib, kichik biznes faoliyatining samaradorligini pasaytiradi. Shu bois, integratsiya jarayonini aniq tartibga soluvchi normativ hujjatlarni ishlab chiqish zarur.

Kichik biznes subyektlari va davlat tizimlari o‘rtasida integratsiyaning oqimdagi har bir zanjirni (Sabab → Oqibat → Takomillashtirish) amaliy mexanizmlar, bosqichlar va o‘lchov ko‘rsatkichlarini konseptual chizmasi 5-rasmda ko‘rsatilgan.



5-rasm. Kichik biznes subyektlari va davlat o‘rtasida integratsiya¹⁸

5-rasmda konseptual chizmada kichik biznes subyektlari va davlat tizimlari o‘rtasidagi integratsiya mexanizmining oqim zanjiri bosqichma-bosqich ifodalangan bo‘lib, u sabab, oqibat va takomillashtirish bosqichlarini o‘z ichiga oladi. Birinchi bosqich – “Sabab” fragmentlashgan, ya’ni bir-biridan ajralgan axborot bazalarining mavjudligi bilan tavsiflanadi. Bu holat kichik biznes subyektlari va davlat tashkilotlari o‘rtasida ma‘lumotlar almashinuvi sustligini, jarayonlarning

¹⁷ Muallif ishlanmasi.


¹⁸ Muallif ishlanmasi.

byurokratik kechishini va axborotning takrorlanishiga olib kelishini ko'rsatadi. Shunday sharoitda korxonalarining raqamli salohiyati to'liq ishga solinmaydi, qarorlar qabul qilishda aniqlik pasayadi va resurslardan foydalanish samaradorligi kamayadi.

Ikkinchi bosqich – *“Oqibat”* esa bu muammoni hal qilish uchun kichik bizneslarni yagona davlat platformasiga integratsiya qilish zaruratini bildiradi. Bu jarayon orqali kichik biznes subyektlari va davlat tizimlari o'rtasida ma'lumotlar almashinuvi markazlashgan, standartlashtirilgan va avtomatlashtirilgan holatga keladi. Yagona platforma orqali soliq, litsenziya, bojxona, kredit, subsidiyalar va hisobotlar bo'yicha axborot oqimlari raqamli tarzda boshqariladi. Natijada, korxonalar uchun davlat bilan o'zaro munosabatlar soddalashadi, ularning faoliyati yanada shaffof va boshqaruvchan bo'ladi.

Uchinchi bosqich – *“Takomillashtirish”* jarayoni esa integratsiya natijalarini yanada kuchaytirish bosqichidir. Bu bosqichda aloqa tezligi va sifati, xususan, API (Application Programming Interface) texnologiyalari orqali avtomatik axborot almashinuvi yaxshilanadi. SI asosidagi tahliliy modullar yordamida davlat tizimlari real vaqt rejimida kichik biznes faoliyatini monitoring qiladi, ehtiyojlarni oldindan prognozlaydi va tezkor boshqaruv qarorlarini ishlab chiqadi. Natijada, kichik biznes subyektlari davlat raqamli infratuzilmasining faol ishtirokchisiga aylanadi, ularning innovatsion faolligi, axborot xavfsizligi va raqamli raqobatbardoshligi izchil ravishda oshadi.

Integratsiya jarayonlarini doimiy kuzatib borish va natijalarni baholash uchun *“Integratsiya tayyorgarligi indeksi (ITI)”*ni joriy etish muhimdir. Milliy hisobotlar ishlab chiqilishi hududlar kesimida muammolarni tezkor aniqlash imkonini beradi. Bundan tashqari, xalqaro reytinglarda yuqori o'rinlarni egallash orqali O'zbekistonning raqamli iqtisodiyotdagi nufuzi ortadi. 6-jadvaldagi har bir yo'nalish integratsiya mexanizmini kuchaytirish uchun o'zaro bog'liq elementlarni tashkil etadi. Me'yoriy, texnik, moliyaviy, ilmiy, kadrlar va monitoring yo'nalishlarida parallel ish olib borilsa, kichik biznesning davlat tizimlari bilan integratsiyasi samarali, barqaror va xalqaro talablarga mos bo'ladi.



6-rasm. Kichik biznes subyektlarda axborot tizimlari integratsiyasini takomillashtirish yo'nalishlari¹⁹

¹⁹ Muallif ishlanmasi.

6-rasmdan radar diagramma kichik biznesda axborot tizimlari integratsiyasini takomillashtirishning oltita asosiy yo‘nalishini ko‘rsatilgan. Har bir yo‘nalishga 5 ballik shkalada baho berilgan bo‘lib, hammasi 4 darajada ko‘rsatilgan. Diagrammada yuqori baho berilgan. Bu O‘zbekistonda qonunchilik bazasi rivojlanib borayotganini ko‘rsatadi, ammo hali ham to‘liq mukammal emas. Maxsus qonun va reglamentlarni ishlab chiqish orqali integratsiya jarayonlari aniq tartibga solinishi lozim. Texnik moslik masalasi dolzarb. Radar grafikda bu yo‘nalish ham yuqori (4 ball) baholangan bo‘lsa-da, real hayotda API va yagona formatlarning to‘liq joriy qilinmaganligi sababli integratsiya uzilishlari yuz beradi.

Dissertatsiyaning **“Buxoro viloyatida kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligini oshirishda sun’iy intellektdan foydalanish holatini empirik tahlili”** deb nomlangan uchinchi bobida Buxoro viloyatida malakali kadrlar va bilim-infratuzilma talab va ehtiyojlari tahlili va Buxoro viloyatida kichik sanoat va xizmat klasterlarini statistik tahlili hamda kichik biznes subyektlarda innovatsion faollikni oshirishda sun’iy intellekt texnologiyalarining transformatsion ahamiyati ko‘rsatilgan.

Buxoro viloyati O‘zbekistonning eng yirik iqtisodiy markazlaridan biri bo‘lib, unda sanoat va xizmat ko‘rsatish sektorlari YHMning qariyb 70 foizini tashkil etadi. Viloyatda kichik sanoat zonalari va xizmat ko‘rsatish klasterlari turizm, savdo, transport-logistika, shuningdek, oziq-ovqat va yengil sanoat yo‘nalishida shakllangan. So‘nggi yillarda davlat siyosati kichik biznes va klasterlash jarayonini qo‘llab-quvvatlash orqali bandlik, investitsiya va eksport hajmini oshirishga qaratilgan.

7-jadval

Buxoro viloyatda kichik sanoat va xizmat ko‘rsatish klasterlari rivoji²⁰

Ko‘rsatkichlar	2020-yil	2022-yil	2024-yil (dastlabki)
YHM hajmi, mlrd. so‘m	32 580	45 120	60 300
Sanoat ishlab chiqarishi, mlrd. so‘m	12 400	18 900	25 600
Xizmatlar hajmi, mlrd. so‘m	13 200	19 800	26 700
Kichik sanoat zonalari soni	12	17	21
Kichik sanoat zonalaridagi korxonalar (dona)	320	470	610
Xizmat ko‘rsatish klasterlari soni	8	11	15
Xizmat ko‘rsatish klasterlarida bandlar (kishi)	24 500	28 600	33 200
Investitsiyalar, mlrd. so‘m	3 900	5 200	7 800
Eksport hajmi, mln. AQSH dollari	210	280	365

7-jadvaldan sanoat klasterlari tahlili 2020–2024-yillarda Buxoroda kichik sanoat zonalari soni 12 tadan 21 taga ko‘payib, korxonalar soni 610 taga yetdi. Eng faol yo‘nalishlar – qurilish materiallari, yengil sanoat va oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash. Sanoat ishlab chiqarishi hajmi 4 yil davomida deyarli ikki baravar


²⁰ O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi, Buxoro viloyati hokimligi iqtisodiy hisobotlari.

o'sib, 25,6 trln. so'mni tashkil etdi. Bu esa klasterlash siyosatining samaradorligini ko'rsatadi. Xizmat ko'rsatish klasterlari tahlili turizm, transport-logistika va savdo yo'nalishida xizmat klasterlari soni 2020-yildagi 8 tadan 2024-yilda 15 taga yetdi. Bandlik hajmi 24,5 ming kishidan 33,2 ming kishiga ko'paydi. Ayniqsa, turizm klasterlari (mehmonxona, transport, qo'llanma xizmatlari) hudud iqtisodiy rivojida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xizmatlar sektori hajmi esa 2020–2024-yillarda 2 baravar o'sib, 26,7 trln. so'mga yetgan. Statistik tahlillar shuni ko'rsatadiki, Buxoro viloyatida kichik sanoat va xizmat klasterlari barqaror o'sishda davom etmoqda.

YHM tarkibida sanoat ulushi 42-43% ni, xizmatlar ulushi esa 45% dan oshmoqda. Investitsiyalar va eksport hajmining ortishi, yangi korxonalar tashkil etilishi hamda bandlik ko'rsatkichlarining oshishi hududda klasterlash mexanizmlarining samarali ishlayotganini isbotlaydi. Bu esa viloyatning uzoq muddatli iqtisodiy barqarorligi va raqobatbardoshligini ta'minlaydi.

7-rasmdan ko'rinib turibdiki, 2020–2024-yillar davomida Buxoro viloyatida sanoat ishlab chiqarishi, xizmatlar hajmi va YHM hajmi muntazam o'sib borgan. 2020-yilda sanoat ishlab chiqarishi 13 trln. so'm atrofida bo'lgan bo'lsa, 2024-yilda bu ko'rsatkich 26 trln. so'mdan oshgan. Xizmatlar hajmi ham xuddi shunday barqaror o'sib, 2020-yildagi 12 trln. so'mdan 2024-yilda 27 trln. so'mga yetgan.

YHM hajmi yanada tezroq sur'atlar bilan o'sib, 2020-yildagi 32 trln. so'mdan 2024-yilda 60 trln. so'mga ko'tarilgan. Bu natija Buxoro viloyatida sanoat va xizmatlar sektorining hudud iqtisodiyotidagi ulushi va ta'sirchanligini ko'rsatadi. Ayniqsa, xizmatlar sektori bilan sanoat ishlab chiqarishi o'sish sur'atlari deyarli parallel ravishda davom etgani iqtisodiy diversifikatsiyaning barqarorligini ta'minlagan.



7-rasm. Buxoro viloyati sanoat va xizmat klasterlari ko'rsatkichlari²¹

Tadbirkorlikning hududiy raqobatbardoshligini baholash uchun YHM tarkibida sanoat va xizmatlar ulushiga asoslangan empirik model taklif etildi. Modelga ko'ra, "Hududiy raqobatbardoshlik indeksi" (HRI) sanoat va xizmatlar

²¹ Muallif ishlanmasi.

sektorining YHMdagi ulushi hamda klasterlash natijasida yuzaga keladigan sinergetik ta'sir orqali aniqlanadi va quyidagi ko'rinishda ifodalanadi:

$$HRIt = \alpha + \beta_1 \cdot SANOATt + \beta_2 \cdot XIZMATt + \beta_3 \cdot KLASTERT + \varepsilon t \quad (2)$$

Bu yerda:

HRIt – davrdagi hududiy raqobatbardoshlik darajasi;

SANOATt – sanoat ishlab chiqarishining YHMdagi ulushi (Buxoro viloyatida 42-43%);

XIZMATt – xizmatlar sektorining YHMdagi ulushi (45% dan ortiq);

KLASTERt – kichik sanoat va xizmat klasterlari rivojlanish darajasi (klasterlar soni, bandlik va ishlab chiqarish hajmi orqali o'lchanadi);

A – erkin had;

β_1 , β_2 , β_3 – mos ravishda sanoat, xizmatlar va klasterlashning raqobatbardoshlikka ta'sir koeffitsiyentlari;

ε – tasodifiy xatolik.

Ushbu model sanoat va xizmatlar ulushining oshishi klasterlash mexanizmi orqali hududiy iqtisodiyotda qo'shilgan qiymat, bandlik va eksport salohiyatini kuchaytirishini empirik jihatdan asoslashga xizmat qiladi.

Umuman olganda, ushbu ko'rsatkichlar Buxoro viloyatining sanoat va xizmat klasterlari orqali iqtisodiy rivojlanishida barqaror ijobiy tendensiya mavjudligini tasdiqlaydi. YHM hajmining oshishi aholining daromadlari, yangi ish o'rinlari va investitsion jozibadorlikka ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, innovatsion faoliyatni yanada kuchaytirish va klasterlararo hamkorlikni rivojlantirish orqali kelajakda bu ko'rsatkichlar yanada yuqori darajaga chiqishi mumkin. 2020–2024-yillarda Buxoro viloyatida kichik sanoat zonalari va xizmat klasterlari sezilarli darajada rivojlangan. Sanoat ishlab chiqarishi 2 baravarga yaqin, xizmatlar hajmi esa qariyb 2 baravar o'sdi. Investitsiyalar, eksport hajmi va bandlik ko'rsatkichlarining oshishi klasterlash mexanizmlarining samarali ishlayotganini ko'rsatmoqda. Ushbu jarayon viloyatning iqtisodiy barqarorligi va raqobatbardoshligini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Dissertatsiyaning “**Buxoro viloyatida kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligini oshirishda sun'iy intellektni joriy etish samaradorligini baholash**” deb nomlangan to'rtinchi bobida kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshlikni oshirishda SI metrikalariga asoslangan moslashuvchanlikni ta'minlash bosqichlari va Buxoro viloyatida kichik biznes xususiyatlari hamda SI imkoniyatlarini baholash hamda Buxoro viloyatida kichik biznes subyektlarining iqtisodiy samaradorlik tahlil qilingan.

Raqamli transformatsiya jarayonlari chuqurlashayotgan bir paytda kichik biznes subyektlar raqobat ustunligini saqlab qolishi uchun Smart Integration, Synergetic Index, Sustainability Impact kabi SI metrikalari asosida faoliyatini baholash, jarayonlarni optimallashtirish va operativ strategik moslashuvni ta'minlash bugungi kunda dolzarb vazifaga aylandi. SI metrikalari o'zining moslashuvchanlik xususiyati orqali kichik biznes subyektlarni “reaktiv” tizimdan

“proaktiv” tizimga o‘tkazish imkoniga egadir. “Reaktiv” tizimdan “proaktiv” tizimga o‘tish – bu korxonaning faqat yuzaga kelgan muammolarga javob qaytaruvchi, kechikkan qarorlar qabul qiluvchi boshqaruv modelidan voz kechib, buning o‘rniga bozor o‘zgarishlarini oldindan sezadigan, xatarlarni prognozlaydigan, imkoniyatlarni avvaldan ko‘radigan va ularga mos strategiyalarni oldindan ishlab chiqadigan faol boshqaruv tizimiga o‘tishni anglatadi. Agar “reaktiv tizim muammoning paydo bo‘lishini kutib tursa, “proaktiv” tizim ma’lumotlar, SI metrikalari, tahliliy modellar va monitoring orqali o‘zgarishlarni bashorat qilib, jarayonlarni avvaldan moslashtiradi.

SI metrikalariga asoslangan moslashuvchanlikni ta’minlash jarayoni quyidagi mazmundagi transformatsion bosqichlarni o‘z ichiga oladi: Monitoring bosqichi – amaldagi jarayonlarni o‘lchash, diagnostika qilish va SI indikatorlarini real vaqt rejimida yig‘ish. Analitika bosqichi – yig‘ilgan ma’lumotlar asosida raqamli analitika, regressiya, BI (Business Intelligence), SI-tahlillarini o‘tkazish. Optimallashtirish bosqichi – jarayonlarni texnologik, moliyaviy, tashkiliy jihatdan takomillashtirish uchun qarorlar ishlab chiqish. Integratsiya bosqichi – avtomatlashtirilgan platformalar, ERP, CRM, IoT, AI tizimlarini real faoliyatga joriy etish. Moslashuvchan boshqaruv bosqichi – korxonaning strategik, taktik va operatsion mexanizmlarini SI natijalari asosida adaptatsiya qilish.

SI metrikalariga asoslangan baholashning mohiyati shundaki, u kichik biznes subyektlarining uchta asosiy qobiliyatini o‘lchaydi: 1. *Smart Integration* – korxonaning raqamli ekotizimga ulanish darajasi, AI–ERP–CRM integratsiyasi, avtomatlashtirish darajasi; 2. *Synergetic Index* – klasterlar, kooperatsiya aloqalari, hamkorlik imkoniyatlari va qo‘shma innovatsiyalar salohiyati; 3. *Sustainability Impact* – ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlikning korxonada natijalariga ta’siri.

Kichik biznesda raqamli integratsiyani oshirishning kompleks yechimlarini ketma-ket bosqichlar orqali yoritadi. Birinchi blok *texnologik integratsiya* – ERP–CRM–AI tizimlarini bog‘lash, IoT monitoring, RPA avtomatlashtirish, bulut texnologiyalari va digital twin kabi ilg‘or raqamli infratuzilmani joriy etishni ko‘zda tutadi; bu esa jarayonlarni avtomatlashtirish, xarajatlarni kamaytirish va tezkorlikni oshirishga xizmat qiladi. Keyingi bosqich *analitika* – real vaqt tahlili, BI platformalaridan foydalanish va ma’lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish orqali korxonada raqamli boshqaruv madaniyatini shakllantiradi. Uchinchi bosqich *boshqaruv* – Agile metodologiyasi, “Zero Trust” kibernetika xavfsizlik modeli va raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish hamda klaster kooperatsiyasini kuchaytirishga qaratilgan bo‘lib, bu kichik biznesning moslashuvchanligini va innovatsion salohiyatini oshiradi. Yakunda barcha bosqichlar *samaradorlik, raqobatbardoshlik va barqaror o‘tish* kabi yakuniy natijalarga erishishga xizmat qiladi.

Buxoro viloyatida kichik biznesni barqaror rivojlantirishning strategik yo‘nalishlarini belgilash, avvalo, ularning hudud iqtisodiyotidagi ulushini oshirishga qaratilgan kompleks yondashuvni talab etadi. Jumladan, innovatsion va raqamli transformatsiya strategiyasi doirasida “ERP–CRM” tizimlari, onlayn savdo platformalari, raqamli marketing, IoT va SI yechimlarini kichik biznesga moslashtirilgan paketlar orqali joriy etish lozim. Bu uchun klasterlararo sinergiyani

kuchaytirish yo‘llarini takomillashtirib, ularni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo‘ladi (8-jadval).

8-jadval

Buxoro viloyatida klasterlararo sinergiyani kuchaytirish yo‘llari²²

№	Yo‘nalish	Mazmuni	Amalga oshirish mexanizmi	Kutilayotgan natija
1	Vertikal-gorizontal integratsiya	Ta‘minot zanjiri, ishlab chiqarish va logistika bo‘g‘inlarini birlashtirish	Klaster korxonalari o‘rtasida raqamli xarita va loyihaviy boshqaruv	Xarajatlar 12–18% kamayadi, ishlab chiqarish zanjiri barqarorlashadi
2	Raqamli platforma (Cluster Hub)	ERP–CRM–AI–IoT integratsiyasi asosida yagona boshqaruv	Ma‘lumotlar almashinuvi, IoT monitoring, AI prognoz tizimi	Jarayonlar tezligi 5 baravar oshadi, nosozliklar 20–25% kamayadi
3	Kooperatsiya markazlari	Tumanlar bo‘yicha korxonalar o‘rtasida xarita, brokerlik va hamkorlik	Buxoro, G‘ijduvon, Kogon, Vobkentda klaster kooperatsiya bo‘linmalari	Kooperatsiya ulushi 30–40% oshadi, lokal ishlab chiqarish kengayadi
4	Innovatsion sinergiya (R&D)	Texnoparklar, universitetlar, KSZ korxonalari hamkorligi	R&D laboratoriyalari, AI–IoT–DT tajriba loyihalari	Innovatsion faollik 40% oshadi, yangi mahsulotlar paydo bo‘ladi
5	Logistika sinergiyasi	Klasterlar uchun yagona logistika tizimi	“Cluster Logistics Map”, umumiy logistika markazlari	Transport xarajatlari 10–15% kamayadi, aylanma tezlashadi
6	Moliyaviy sinergiya	Kooperatsion loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlari	“Cluster Finance Program”, PPP, imtiyozli kreditlar	Investitsiya oqimi oshadi, yangi klaster loyihalari shakllanadi
7	Kadrlar sinergiyasi	Malaka ekotizimini yaratish, kadr almashinuvi	AI–Digital–Logistika kurslari, Workforce Sharing Platform	

8-jadvaldan ko‘rib turibdiki, Buxoro viloyatidagi mavjud sanoat va xizmat ko‘rsatish klasterlarida asosiy muammo – ishlab chiqarish jarayonlarining bo‘lak-bo‘lak va koordinatsiyasiz tashkil etilganidadir. Vertikal integratsiya “xomashyo yetkazib beruvchi → qayta ishlovchi → tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchi → eksport qiluvchi” bo‘g‘inlarni yagona zanjirga birlashtiradi. Gorizontal integratsiya esa bir xil segmentdagi korxonalar o‘rtasida hamkorlikni mustahkamlaydi. Bu jarayonlarni raqamli xaritalash klaster a‘zolari o‘rtasida moslashuvchanlikni oshiradi, resurslar oqimining tezligi va shaffofligini ta‘minlaydi. Natijada, takroriy xarajatlar bartaraf etilib, tannarx 12–18 % gacha kamayadi, ishlab chiqarish zanjiri barqaror va boshqariladigan tizimga aylanadi.

“ERP–CRM–AI–IoT” tizimlarini birlashtirgan klaster platformasi (Cluster Hub) Buxorodagi KSZlar, xizmat klasterlari va ishlab chiqaruvchilar uchun yagona boshqaruv mexanizmini yaratadi. Hozir korxonalar o‘rtasida ma‘lumot almashinuvi sekin, nomuvofiq va, odatda, o‘zaro mos kelmaydi. Raqamli platformada AI asosidagi prognozlar, IoT orqali real vaqt monitoringi, logistika holati, buyurtmalar va texnik xizmat ko‘rsatish avtomatik tarzda boshqariladi. Bu jarayon qarorlar qabul qilish tezligini 5 baravargacha oshiradi, nosozliklarni oldindan aniqlab, 20–25 %

²² Muallif ishlanmasi.

gacha kamaytiradi, boshqaruv shaffofligini kuchaytiradi va butun raqamli ekotizimni uyg'un ishlashga yo'naltiradi.

Buxoro, G'ijduvon, Kogon va Vobkent tumanlarida kooperatsiya markazlari tashkil etilishi klasterlar o'rtasidagi bo'g'inlarni uzluksiz bog'laydi. Bu markazlar asosiy ishlab chiqaruvchilar, xomashyo ishlab chiquvchilar, logistika firmalari va eksport qiluvchilarni yagona ma'lumot bazasiga birlashtiradi. Brokerlik tizimi orqali kim nimani ishlab chiqarishi, kimga qancha xomashyo kerakligi, qaysi hududda quvvat yetishmayotgani tez aniqlanadi. Bu mahalliy kooperatsiyaning ulushini 30–40 % gacha oshiradi, kichik biznesning yirik klasterlar bilan integratsiyasini kuchaytiradi va hududiy ishlab chiqarishning diversifikatsiyasini ta'minlaydi.

Dissertatsiyaning “**Kichik biznesda sun'iy intellektni joriy etish modellari**” deb nomlangan beshinchi bobida Buxoro viloyati kichik sanoat va xizmat klasterlarida SI joriy etish usullari va SI-asosidagi prognoz-analitik vositalarni ma'lumotlar bazasini yaratish hamda ARIMA/ VAR/ machine learning modellari orqali kichik biznesni rivojlantirishni prognoz variantlarini ishlab chiqilgan.

Dissertatsiya ishida tadbirkorlik subyektlari raqobatbardoshligini oshirishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish ustuvorligida Buxoro viloyatida kichik biznes iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlarining 2026-2030-yillarda prognoz parametrlari ishlab chiqilgan. Ushbu prognoz qiymatlarini hisoblashda viloyatda kichik biznesning iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari 2010–2025-yillar bo'yicha ma'lumotlaridan foydalanildi (9-jadval).

9-jadval

Buxoro viloyatida 2010–2025-yillarda kichik biznesning iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari²³

Yillar	Y (mlrd. so'm)	X1 (mlrd. so'm)	X2 (ming kishi)	X3 (mlrd. so'm)	X4 (mlrd so'm)	X5 (ming kishi)	X6 (foizda)	X7 (foizda)
2010	2371.9	388.9	1930	1742.3	485.3	6431	51.2	61
2011	2488.2	476.1	2328	2137.8	524.6	6618	56.7	64
2012	2609.5	582.7	2833	2623.1	567.1	6810	62.8	68
2013	2737.4	713.2	3448	3218.5	612.5	7008	69.6	73
2014	2871.5	872.9	4196	3948.3	665.8	7211	77.2	62
2015	3012.2	1068.5	5107	4844.6	723.7	7420	85.6	53
2016	3159.8	1307.9	6215	5944.3	786.5	7635	94.9	63
2017	3314.6	1600.9	7562	7293.6	854.9	7857	105.3	75
2018	3478.3	1959.5	9202	8948.7	978.8	8085	116.8	89
2019	3652.2	2398.4	11199	10979.3	1152.0	8320	129.5	104
2020	3834.8	2935.7	13629	13471.6	1715.4	8559	143.6	132
2021	4061.1	3594.8	16589	16542.4	2553.9	8565	159.2	191
2022	4176.2	3664.9	16535	20523.6	2940.3	9585	176.6	77
2023	6574.9	293.4	17672	29522.0	4440.3	9796	195.9	78
2024	10235.3	23500.0	18844	32589.4	4773.1	9560	217.4	137
2025	11250.0	26200.0	19850	35200.0	5100.0	9850	232.0	145

²³ Muallif ishlanmasi.

9-jadvalda Y – mahsulot ishlab chiqarish hajmini (mlrd. so‘mda) ifodalaniib, bu ko‘rsatkich kichik biznes korxonalarining yalpi ishlab chiqarish miqyosini va real sektor faoliyatining kengayish darajasini aks ettiradi. Buxoro viloyatida kichik biznesning iqtisodiy rivojlanishiga ta’sir etuvchi 7 ta quyidagi omillar o‘rganilgan: X1 – kichik biznes subyektlarga kiritilgan investitsiyalar hajmi (mln. so‘m); X2 — kichik biznes subyektlaridagi xodimlar soni (ming kishi); X3 – yillik daromad (mlrd. so‘m), bu ko‘rsatkich kichik biznes subyektlarining moliyaviy samaradorligi va bozordagi umumiy natijasini ifodalab, iqtisodiy foyda yaratish imkoniyatlarini ko‘rsatadi; X4 – yillik xarajatlar (mlrd. so‘m); X5 – kadrlar salohiyati (oliy ma’lumotli xodimlar soni); X6 – imtiyozli bank kreditlari hajmi (foizda); X7 – innovatsion faoliyat bilan bog‘liq ko‘rsatkich (foizda).

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Buxoro viloyatida kichik biznesning iqtisodiy rivojlanish ko‘rsatkichlari va unga ta’sir etuvchi omillar dinamikasi vaqt bo‘yicha o‘svuvchi trendga ega. Bu shuni anglatadiki, tadqiq etilayotgan dinamik qatorlarda nostasionarlik muammosi mavjud. Nostasionar qatorlar stasionar holatga olib kelinganidan so‘ng, iqtisodiy ko‘rsatkichlarni prognozlashtirish tavsiya etiladi. Shu jihatdan olib qaralganda, tadqiqot ishida ARIMA modelidan foydalaniladi. Stasionar ARIMA modelidan foydalanib, prognoz parametrlarini ishlab chiqish jarayoni dissertatsiyada batafsil keltirilgan.

Quyida 2010–2025-yillar bo‘yicha berilgan 16 ta yillik kuzatuvga tayanilgan holda har bir ko‘rsatkich uchun alohida ARIMA (p,d,q) modeli tanlanib (AIC bo‘yicha eng yaxshi), 2026–2030-yillarga mo‘ljallangan 5 qadamli prognozni amalga oshirildi. Bunda yillik qator qisqa bo‘lgani uchun natijalarni “ilmiy ehtiyotkorlik” bilan talqin qilish maqsadga muvofiq bo‘lib, ayniqsa mazkur holat 2023–2025-yillarda keskin struktura o‘zgarishi bor qatorlar uchun tavsiya etiladi (10-jadval).

10-jadval


Buxoro viloyatida kichik biznes iqtisodiy rivojlanishi asosiy ko‘rsatkichlarining 2026–2030-yillarga mo‘ljallangan prognoz ko‘rsatkichlari²⁴

Yil	Y	X1	X2	X3	X4	X5	X6	X7
2025 (baza)	11250.0	26200.0	19850.0	35200.0	5100.0	9850	232.0	145.0
2026	11587.5	27117.0	20445.5	36185.6	5253.0	9899	237.8	146.4
2027	11935.1	28066.1	21058.9	37198.8	5410.6	9948	243.7	147.9
2028	12293.2	29048.4	21690.7	38240.4	5572.9	9998	249.8	149.4
2029	12662.0	30065.1	22341.4	39311.1	5740.1	10048	256.0	150.9
2030	13041.9	31117.4	23011.6	40411.8	5912.3	10098	262.4	152.4

10-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, Buxoro viloyatida kichik biznes subyektlari faoliyatini ifodalovchi asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlarning 2026–2030-yillarga

²⁴ Muallif ishlanmasi.

mo'ljallangan prognoz natijalari hudud iqtisodiyotida barqaror va izchil o'sish tendensiyasining shakllanib borayotganini ko'rsatadi. Prognoz 2025-yilda erishilgan haqiqiy qiymatlar asosida qurilib, har bir keyingi yilda ko'rsatkichlarning oldingi yilga nisbatan kichik farq bilan o'sib borish qonuniyati saqlab qolingan. Bu esa prognoz natijalarining iqtisodiy mantiqqa muvofiqligi hamda amaliy rejalashtirishda qo'llash imkoniyatini oshiradi.



8-rasm. 2026–2030-yillarda Buxoro viloyatida kichik biznes iqtisodiy rivojlanish asosiy ko'rsatkichining prognoz parametrlari (mlrd. so'mda)²⁵

Yalpi iqtisodiy natijani ifodalovchi **Y-ko'rsatkichi** 2025-yildagi 11250 mlrd. so'mdan 2030-yilga kelib 13041,9 mlrd. so'mgacha o'sishi prognoz qilinmoqda (8-rasm). Bu besh yil davomida umumiy hisobda qariyb 16,0 foizlik o'sishni anglatadi.

Ushbu dinamika kichik biznes sohasida ishlab chiqarish hajmining kengayishi, xizmatlar ko'lamining oshishi va tadbirkorlik faoliyatining institusional jihatdan mustahkamlanib borayotgani bilan izohlanadi. E'tiborli jihati shundaki, o'sish sur'ati keskin sakrashlarsiz, bosqichma-bosqich amalga oshmoqda, bu esa iqtisodiy barqarorlikni ta'minlovchi muhim omil hisoblanadi.

Umuman olganda, 2026–2030-yillarga mo'ljallangan prognoz natijalari Buxoro viloyatida kichik biznes iqtisodiy rivojlanishining barqaror, bosqichma-bosqich va mutanosib o'sish modeli shakllanib borayotganini ko'rsatadi. Ko'rsatkichlar o'rtasidagi mutanosiblik saqlanib, iqtisodiy, moliyaviy va ijtimoiy omillar o'zaro uyg'un ravishda rivojlanmoqda. Bu esa kelgusida hududda kichik biznesni qo'llab-quvvatlash siyosati samaradorligini oshirish, investisiya muhitini yanada yaxshilash va aholi farovonligini ta'minlash uchun mustahkam asos bo'lib xizmat qiladi.

Modelning sifat ko'rsatkichlari quyida keltirilgan jadvalda o'z aksini topgan (11-jadval). 11-jadvaldan ko'rinib turibdiki, Yalpi natijani ifodalovchi Y – ko'rsatkichi uchun tanlangan ARIMA(1,0,2) modeli nisbatan past AIC (267,44) va BIC (271,30) qiymatlariga ega bo'lib, ushbu qator dinamikasini yaxshi ifodalayotganini ko'rsatadi. MAE va RMSE qiymatlarining mos ravishda 352,15 va 796,19 ni tashkil etishi, shuningdek, MAPE ko'rsatkichining 9,22 foiz darajada

²⁵ Muallif ishlanmasi.

bo‘lishi model prognoz xatoligining qabul qilinadigan chegarada ekanini anglatadi. Ljung–Box testining p-qiymati 1,0000 ga teng bo‘lib, qoldiqlarda avtokorrelyasiya mavjud emasligini tasdiqlaydi, biroq Jarque–Bera testining juda kichik p-qiymati (0,0003) qoldiqlar taqsimoti normal emasligini, ya’ni qatorida autlayerlar va struktura o‘zgarishlari borligini ko‘rsatadi.

11-jadval

Prognoz modellarining sifat ko‘rsatkichlari²⁶

Ko‘rsatkich	Tanlangan ARIMA	AIC	BIC	MAE	RMSE	MAPE (%)	Ljung-Box p	JB p
Y	(1,0,2)	267.44	271.30	352.15	796.19	9.22	1.0000	0.0003
X1	(1,0,0)	330.47	332.79	2645.00	6004.88	189.10	1.0000	0.0000
X2	(2,0,1)	270.31	274.18	930.72	2074.98	29.91	1.0000	0.0000
X3	(2,0,0)	300.10	303.19	1689.88	3273.89	44.44	1.0000	0.0000
X4	(2,0,2)	243.31	247.95	256.80	423.62	27.06	0.9983	0.0064
X5	(2,0,1)	237.43	241.29	228.14	494.93	3.02	0.9998	0.0000
X6	(2,0,0)	86.66	89.75	8.26	27.01	14.46	1.0000	0.0000
X7	(0,0,1)	163.06	165.38	26.26	32.63	29.22	0.9712	0.6255

Prognoz modellarining 7 ta – X₁, X₂, X₃, X₄, X₅, X₆, X₇ omillarining sifat ko‘rsatkichlari dissertatsiyada batafsil tavsiflangan. Umuman olganda, ARIMA modellari ko‘rsatkichlarning aksariyati uchun ichki dinamikani yetarli darajada aks ettirgan, qoldiqlarda avtokorrelyatsiya muammosi deyarli kuzatilmagan. Shu bilan birga, ayrim qatorlarda yuqori xatoliklar va normal taqsimotdan og‘ishlar mavjudligi prognoz natijalarini talqin qilishda ehtiyotkorlikni talab qiladi.

XULOSA

Kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligini oshirishda sun‘iy intellektdan foydalanish metodologiyasini takomillashtirish borasida o‘tkazilgan dissertatsion tadqiqot asosida quyidagi ilmiy xulosalar olinib, ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqildi:

1. Kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligi sun‘iy intellekt texnologiyalarini tizimli joriy etish orqali sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tariladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, SI asosida resurslar integratsiyasi, intellektual tahlil, monitoring, innovatsiya va diagnostika ketma-ketligida shakllangan strategik mexanizm kichik biznesning raqamli raqobatbardoshligini barqaror oshiradi.

2. Sun‘iy intellekt raqobatbardoshlik kompozit indeksi (CAIC) kichik biznes subyektining bozorda raqobat qilish qobiliyatini bir nechta muhim ko‘rsatkichlar asosida yagona sonli bahoga aylantiruvchi umumiy indeks bo‘lib, u korxonaning ishlab chiqarish samaradorligi, marketing faoliyati, moliyaviy boshqaruvi, innovatsion salohiyati va xavflarni boshqarish darajasi kabi omillarni birlashtirib, ularning umumiy ta‘sirini ko‘rsatadi.

3. “Sensing–Seizing–Reconfiguring” (2SR) modeli sun‘iy intellekt bilan uyg‘unlashganda kichik biznesning strategik moslashuvchanligini sezilarli darajada

²⁶ Muallif ishlanmasi.

kuchaytiradi. Bu model yordamida bozor imkoniyatlarini aniqlash, ularni tezkor egallash va ichki jarayonlarni qayta konfiguratsiya qilish orqali raqobat ustunligi saqlab qolinadi.

4. Xususi va umumiy axborot tizimlarini SI asosida integratsiyalash kichik biznes subyektlari uchun alohida strategik ustunlik manbai hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, integratsiya qilinmagan axborot tizimlari byurokratik to'siqlar, ma'lumotlar takrorlanishi va vaqt yo'qotishlariga olib keladi, SI asosidagi integratsiya esa tezkorlik, aniqlik va shaffoflikni ta'minlaydi.

5. O'zbekistonda kichik biznes axborot tizimlari integratsiyasining sustligi asosan institutsional, texnik, moliyaviy va kadrlar omillari bilan izohlanadi. Me'yoriy-huquqiy bazaning yetarli emasligi, yagona API standartlarining yo'qligi va IT mutaxassislar yetishmasligi integratsiya jarayonini sekinlashtirayotgan asosiy to'siqlar sifatida aniqlandi.

6. Buxoro viloyatida kichik sanoat va xizmat klasterlarining rivojlanishi hududiy iqtisodiy o'sishning muhim drayveriga aylangan. Empirik tahlillar klasterlar soni, bandlik, ishlab chiqarish hajmi, eksport va investitsiyalar ko'rsatkichlarining barqaror o'sishini tasdiqlab, klasterlashtirish mexanizmlarining samaradorligini ko'rsatdi.

7. Infratuzilma rivoji – klasterlashtirish – kadrlar salohiyati o'rtasida kuchli sinergetik bog'liqlik mavjud. Tadqiqot natijalariga ko'ra, infratuzilmaning modernizatsiyasi kadrlar sifatini oshiradi, bu esa klasterlar samaradorligi va kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligini mustahkamlaydi.

8. "Hududiy raqobatbardoshlik indeksi" (HRI) sanoat va xizmatlar ulushi hamda klasterlashtirish darajasi orqali samarali baholanishi ilmiy jihatdan asoslandi. Taklif etilgan empirik model Buxoro viloyatida klasterlashtirish jarayoni YHM tarkibida qo'shilgan qiymat, bandlik va eksport salohiyatini kuchaytirayotganini ko'rsatdi.

9. 2010–2025-yillardagi trend tahlili va 2030-yilgacha prognoz natijalari kichik biznes subyektlarining barqaror o'suvchi va innovatsion sektor sifatida shakllanayotganini tasdiqlaydi. Ishlab chiqarish, investitsiyalar, daromadlar, bandlik va innovatsion faollik bo'yicha barcha ko'rsatkichlar ijobiy va izchil o'sish tendensiyasiga ega ekanligi aniqlandi.

10. Sun'iy intellekt, raqamli integratsiya va klasterlashtirishning uyg'unlashuvi kichik biznesning uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta'minlovchi kompleks mexanizm sifatida shakllandi. Tadqiqot natijalari kichik biznes subyektlarining iqtisodiy samaradorligi, innovatsion salohiyati va hududiy raqobatbardoshligini oshirishda SI texnologiyalari strategik ahamiyatga ega ekanini ilmiy jihatdan asoslab berdi.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПРИ НАУЧНОМ СОВЕТЕ
DSc.03/2025.27.12. I.08.03 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ
ПРИ БУХАРСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

НАВРУЗ-ЗОДА ЛАЙЛИ БАХТИЁРОВА

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДОЛОГИИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ
ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ПОВЫШЕНИИ
КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ СУБЪЕКТОВ МАЛОГО БИЗНЕСА**

08.00.15 – Предпринимательство и экономика малого бизнеса

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора (DSc) экономических наук**

Бухара – 2026

Тема диссертации доктора (DSc) экономических наук зарегистрирована за номером B2025.4.DSc/Iqt1075 в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инновации Республики Узбекистан

Диссертация выполнена в Бухарском государственном университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.buxdu.uz) и Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziynet.uz).

Научный консультант: Муродова Нодира Кулиевна
доктор экономических наук, профессор

Официальные оппоненты: Салаев Санъатбек Комилович
доктор экономических наук, профессор

Мухитдинов Худояр Суюнович
доктор экономических наук, профессор

Аскарлов Назимжон Ниёзович
доктор экономических наук, профессор

Ведущая организация: Каршинский государственный технический университет

Защита диссертации состоится в 16:00 часов 10.06 2026 года на заседании Научного совета DSc.03/2025.27.12. I.08.03 по присуждению ученых степеней при Бухарском государственном университете (220114, г.Бухара, ул. М. Икбол, 11. Тел: (99 865) 221-26-46, faks.: (99 862) 224-57-00,

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Бухарского государственного университета (зарегистрирована за №. 2162). (Адрес: г.Бухара, ул. М. Икбол, 11. Тел.: (998 65) 221-25-87, e-mail: buxdu_arm@umail.uz

Автореферат диссертации разослан «26» 05 2026 года
(реестр протокола рассылки № 5/16 от «26» 05 2026 года



О.Х.Хамидов
Председатель разового научного совета на основе научного совета по присуждению ученых степеней, доктор экономических наук, профессор

Д.Ш.Явмутов
Ученый секретарь разового научного совета на основе научного совета по присуждению ученых степеней, доктор экономических наук, профессор

А.О.Очилов
Председатель разового научного семинара при научном совете по присуждению ученых степеней, доктор экономических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора наук (DSc))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире на протяжении 2015-2025 годов значительно расширилось использование искусственного интеллекта (ИИ) для повышения конкурентоспособности субъектов малого бизнеса в глобальном масштабе. Если в 2015 году только 5-10 процентов субъектов малого бизнеса использовали средства ИИ, то к 2025 году этот показатель достиг в среднем 70-80 процентов, а в развитых рынках, таких как США, превысил 95 процентов. Как показывают исследования, чат-боты на основе ИИ, системы маркетинговой автоматизации и прогнозирования повышают производительность труда субъектов малого бизнеса в среднем на 20-30%. Операционные расходы сократились на 15-25 процентов. Предприятия, использующие генеративный ИИ, сэкономили в среднем 13-14 часов в неделю. В финансовом секторе модели кредитного скоринга и оценки рисков на основе ИИ проанализировали более 10 миллионов заявок от малого бизнеса в день, снизив риск кредитного дефолта почти на 40%¹. С научной точки зрения за последнее десятилетие опубликованы тысячи эмпирических исследований в направлении «ИИ + малый бизнес + конкурентоспособность», и только в 2020-2025 годах опубликовано более 5 тысяч научных статей и библиометрических работ². Это ясно подтверждает, что искусственный интеллект превратился из обычных технологий в стратегическое конкурентное преимущество для малого бизнеса.

В мировой экономике методология использования искусственного интеллекта в повышении конкурентоспособности субъектов малого бизнеса находится на стадии интенсивного развития, которая в основном направлена на принятие решений на основе данных, автоматизацию бизнес-процессов, прогнозный анализ и формирование системы цифровых услуг, ориентированных на клиента. Разработанные в последние годы методологии, основанные на принципе «низкие затраты - высокая эффективность» с учетом ограниченных ресурсов малого бизнеса, служат повышению производительности труда, снижению затрат и повышению рыночной гибкости за счет интеграции маркетинговой аналитики на основе ИИ, оценки финансовых рисков, прогнозирования спроса и моделей оперативного управления. В результате искусственный интеллект становится не отдельным технологическим средством для малого бизнеса, а стратегической методологической платформой, обеспечивающей устойчивое и долгосрочное преимущество в условиях глобальной конкуренции.

В условиях Нового Узбекистана процессы развития субъектов малого бизнеса неразрывно связаны со структурными реформами, цифровой трансформацией и внедрением инновационных технологий, направлены на развитие предпринимательства и повышение эффективности и

¹ Organisation for Economic Co-operation and Development. (2023). *Artificial intelligence in small and medium-sized enterprises: Adoption, impacts and policy implications*. OECD Publishing. <https://doi.org/10.1787/7a5c1b5e-en>.

² Elsevier B.V. (2025). *Scopus database: Artificial intelligence, small business and competitiveness research output (2020–2025) bibliometric analytics report*. Scopus Content Analytics.

конкурентоспособности в промышленности, сельском хозяйстве, сфере услуг, транспортно-логистической и энергетической отраслях. Согласно Указу Президента Республики Узбекистан УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы» от 28 января 2022 года, «Поддержка предпринимательства, модернизация промышленности, широкое внедрение цифровых технологий и развитие сферы услуг являются приоритетными задачами в ускоренном развитии национальной экономики»³. В реализации этой приоритетной задачи внедрение технологической модернизации и цифровых производственных систем в промышленности, агротехнологий и ресурсосберегающих подходов в сельском хозяйстве, цифровых платформ и механизмов управления на основе искусственного интеллекта в сфере услуг формируют новые источники экономического роста. В результате усиливается межотраслевая интеграция, последовательно повышается устойчивость национальной экономики и конкурентоспособность субъектов малого бизнеса.

Данная диссертационная работа в определенной степени служит реализации приоритетных задач, обозначенных в Указах Президента Республики Узбекистан УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы» от 28 января 2022 года, УП-6079 «Об утверждении Стратегии «Цифровой Узбекистан - 2030» от 5 октября 2020 года, УП-158 «Об утверждении Стратегии «Узбекистан - 2030» от 11 сентября 2023 года, Постановлениях Президента Республики Узбекистан ПП-358 «Об утверждении Стратегии развития технологий искусственного интеллекта до 2030 года» от 14 октября 2024 года, ПП-5234 «О мерах по внедрению специального режима по применению технологий искусственного интеллекта» от 26 августа 2021 года, постановлениях Кабинета Министров Республики Узбекистан ПКМ-402 «О мерах по созданию парка информационных технологий» от 7 июля 2018 года, ПКМ-373 «О мерах по дальнейшему совершенствованию системы рейтинговой оценки состояния развития цифровой экономики и электронного правительства» от 20 июля 2021 года, а также в реализации приоритетных задач, определенных решениями по укреплению правовых и экономических условий для внедрения методологий маркетинга, финансового анализа, оценки рисков и прогнозирования на основе искусственного интеллекта в малом бизнесе, с учетом финансовой и организационной поддержки стартап-проектов и инновационного предпринимательства.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Диссертационное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики I. «Духовно-нравственное и культурное развитие демократического и правового общества, формирование инновационной экономики.»

³ Президент Республики Узбекистан. (2022). Указ No УП-60 "О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы".

Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации⁴.

